



“YASHIL MAKON” LOYIHASI VA OBODONCHILIK BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni “Yashil makon” loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Bu yil bahorda “Yashil makon” loyihasi doirasida 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Hududlarda bog'lar yaratish, yo'l bo'ylarida 10 qatordan daraxtlar ekish bo'yicha ishlar boshlangan. Bu Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Lekin aksariyat viloyat va tumanlarda daraxt ekadigan joylar haligacha belgilanmagan, sug'orish va ko'chatga pul ajratilmagan.

Shu bois, Vazirlar Mahkamasida bu masala tanqidiy ko'rib chiqilib, viloyat hokimlarining sohaga mas'ul o'rinbosarlari, tuman hokimlari va ularning o'rinbosarlari, tizim tashkilotlari rahbarlaridan 28 nafariga intizomiy jazo qo'llangan qayd etildi.

Bu boradagi ishlar ko'lami vazirliklar kesimida ham turlicha. Masalan, Mudofaa vazirligi 100 gektar, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi 65 gektardan bog' yaratgan. Lekin Energetika va Transport vazirliklariga ajratilgan yerlarda ko'chat to'liq ekilmagan. Avtomobil va temir yo'l bo'ylari, daryo va kanal yoqalari, sanoat korxonalarini va yoqilg'i quyish shoxobchalari atrofida ham qancha joylar bo'sh yotibdi.

Umuman, daraxt ekishni ommalashtirish bo'yicha tashabbus va targ'ibot yetishmayotgani ko'rsatib o'tildi. Bu borada davlat tashkilotlari bilan birga mahalliy kengashlar, Ekopartiya va boshqa uyushmalar, mahallalar — hamma birdam bo'lib harakat qilsa, juda ko'p bog'lar yaratilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda “Yashil makon” loyihasi doirasidagi galdagi vazifalar, yangi tashabbuslar muhokama qilindi.

Yurtimizda daraxt ekib, yashillik yaratishni xohlovchilar ko'p. Lekin ko'p qavatli uyda yashaydigan odamlarda yer yo'q. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi asosida Toshkent viloyatida yaxshi tashabbus boshlangan. Unga ko'ra, tumanlar hududidan yer ajratilib, 30 yil muddatga obodonlashtirish boshqarmalari beriladi. Mahalliy budget hisobidan tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilinib, yer tayyor holga keltirilib, daraxt ekish istagi bor aholiga taklif etiladi. Har bir ko'chat uni ekan odam nomiga tamg'alanaadi. Daraxtlarni parvarishlash uchun obodonlashtirish boshqarmasi xodimi birlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari bu tajribani barcha viloyatlarda amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Mamlakatimizda 9 ming 452 ta mahalla bor. Jumladan, shaharlarda 39 mingta ko'p qavatli uy mavjud. Mahalla faollari, boshqaruv servis kompaniyalari ushbu hududlarda ko'chatlar ekilishiga bosh-qosh bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Yo'llar va kanallar bo'yidagi yerlarni talabgorlarga to'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida 10 yilga berib, 5 qatordan ko'chat ektirish tizimi joriy qilingan. Bundan foydalanib, hozirgi mavsumda ham ko'plab daraxtzorlarga zamin yaratish mumkin.

Yashil hududlarni ko'paytirish bo'yicha Toshkent shahrida ham yaxshi tajriba qo'llanmoqda. Ya'ni shaharsozlik kengashi yangi qurilishlar maydonining kamida 30 foiziga daraxt ekish majburiyatini qo'yib, ko'chat navigacha belgilab beryapti. Obyekt bu shart bajarilgandan keyingina foydalanishga qabul qilinaypti.

Qurilish vazirligiga bu tartibni barcha hududlarda ommalashtirib, shaharsozlik normalari va litsenziya talablariga daraxt ekish majburiyatini kiritish topshirildi.

Xususan, bu yil topshiriladigan 2,5 mingta ko'p qavatli uylar hududining 30 foizida, 38 ta “Yangi O'zbekiston” massivlarining har birida kamida 1 gektardan yashil xiyobonlar tashkil qilinishi belgilandi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga joylarda 444 ta yashil bog' va 160 ta jamoat parklari tashkil qilish, “Mening bog'im” loyihasini ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Mutasaddilar dala chetlarida, yirik korxonalar va sanoat zonalarida atrofida yashil hududlar tashkil qilish rejalarini ko'rib chiqib berdi.

Ijtimoiy muassasalarga ko'chatlarni bepul yetkazib berish amaliyoti bu yil ham davom ettirilib, ularga jami 4 milliondan ziyod ko'chat tarqatilishi aytiladi.

Yig'ilishda chiqindilar bilan ishlash tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari ham muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, endi hududlarda obodonlashtirish, tozalikni ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim bo'ladi. Har bir viloyatdagi 2 tadan tumanida 1-maydan boshlab, tajriba tarzida obodonlashtirish boshqarmalari vazifalari xususiy sheriklik asosida chiqindi korxonalariga o'tkaziladi.

Bunda tadbirkorlar o'ziga birlashtirilgan hududda daraxt va gullar ekish, ularni parvarishlash, ariqlarni tozalash, ko'chalarni yoritish bilan birga, chiqindilarni olib ketish bilan ham shug'ullanadi. Obodonlashtirish bo'limlariga har yili byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ham endi ularga yo'naltiriladi.

Ushbu tajriba o'zini oqlasa, 2025-yildan barcha tuman va shaharlarda yo'lga qo'yiladi. Toshkent shahri uchun alohida tizim bo'ladi. Poytaxt tumanlaridagi obodonlashtirish boshqarmalarining ko'chalarni tozalash, ko'kalamzorlashtirish, yo'llarga xizmat ko'rsatish vazifalari 15-apreldan auksion orqali xususiy sheriklarga beriladi.

Chiqindi poligonlarini tartibga keltirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha ham yangi tizim bo'ladi. Har bir viloyatda joylashuvi qulay bo'lgan 3-4 tadan poligon maxsus eko-sanoat zonasiga aylantirilib, qayta ishlash loyihalari amalga oshiriladi. Qolganlarida chiqindini vaqtincha to'plab, qayta yuklaydigan stansiyalar ishga tushadi.

Resursini o'tab bo'lgan poligonlar yopiladi. Ularning atrofida terak, tut, gujum, zarang ekib, yashil belbog' barpo qilinadi.

Chiqindilarni olib ketish xizmati yaxshi bo'lishi uchun to'lov intizomi ham kerak. Shu bois, bu borada ham yangi tartib joriy qilinadi. Unga ko'ra, “mahalla yetiligi”ga hududida aslida ko'rsatilmagan xizmat bo'yicha noreal qarzni hisobga olmaslik vakolati beriladi. Bu orqali xizmat ko'rsatilmagan hudud uchun ham debitor qarzdorlik yozib qo'yishdek adolatsiz amaliyotga chek qo'yiladi.

Ko'p qavatli uylarda aholini chiqindini saralagan holda tashlashga rag'batlantiradigan tizim joriy etiladi. Buning uchun Ekologiya jamg'armasi hisobidan maxsus chiqindi qoplarini bepul beriladi, aholi chiqindini belgilangan toifaga ajratib, shoxobchaga olib boradi. Tadbirkorlar esa qayta ishlanadigan foydali chiqindini aholidan sotib oladi.

Ushbu tizim birinchi bosqichda Toshkent, Andijon, Buxoro, Termiz, Angren shaharlari va Toshkent tumanida yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshitildi.

O'ZA

IQTISODIYOTNI BARQAROR O'STIRISH BO'YICHA VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar, shu jumladan, yirik korxonalarini transformatsiya qilish, hududlarning “o'sish nuqtalari”ni ishga solish, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida soha va tarmoqlarda iqtisodiy faollik oshib bormoqda.

Xususan, joriy yilning birinchi choragida yalpi ichki mahsulot hajmi 6 foizdan ziyod o'sishi kutilmoqda. Bunda tadbirkorlik faol qo'llab-quvvatlanishi va qish mavsumida barqaror energiya resurslari bilan ta'minlanishi hisobga sanoat o'sishi qariyb 10 foizga, eksport hajmi 3,5 milliard dollarga yetishi muhim omil bo'lmoqda.

Tashqi bozorda raqobat kuchayib borayotgan sharoitni inobatiga olgan holda, 2024-yilda bozor iqtisodiyoti poydevorini qurish

ning asosiy jarayonlarini yakunlab, iqtisodiyotni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga olib chiqish, korxonalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini oshirish talab etilmoqda.

Shu bois, yig'ilishda yirik davlat korxonalarining xarajatlarini maqbullashtirish, energiya resurslarini tejash borasida qilinayotgan ishlar natijadorligi atroflicha ko'rib chiqildi. Dunyo bozorida gi murakkab sharoitda eksport tushumlarini oshirish, korxonalarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash, debitor qarzdorligini kamaytirish, xarajatlar asossiz o'sishining oldini olish bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi.

Alohida e'tibor tarmoq va hududlarning eksport imkoniyatlarini ta'minlash masalalariga qaratildi. Buning uchun tadbirkorlarga

tashqi bozorlarga chiqishda qulay ishlab chiqarish va logistika zanjirlarini yaratib berish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari ichki bozorda narx-navo barqarorligi masalasiga alohida to'xtalib, kundalik iste'mol tovarlarini mahalliylashtirishni kengaytirish, korxonalarining quvvatini oshirishga ko'maklashish zarurligini ta'kidlandi.

Yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududlardagi sanoat zonalarida hamda kooperatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash kerakligi qayd etildi. Asosiy e'tiborni qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tayyorlash, ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratish shartligi ko'rsatib o'tildi.

O'ZA

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARINI KUCHAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQLDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-mart kuni huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch tuzilmalari rahbarlari ishtirokida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyatining savdo va xizmat ko'rsatish sohasi yirik obyektlarida, shu jumladan, savdo ko'ngilochar majmualar, bog'lar, bozorlar va boshqa fuqarolar gavyum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash ishlarining tashkil etilishi to'g'risidagi hisobotlari tinglandi.

Jamoat xavfsizligiga yangi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza

qilish idoralari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini so'zsiz ta'minlash muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari va tadbirkorlik subyektlarining bu borada to'laqonli hamkorlik qilishlarini

ta'minlashga qaratilgan normalativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga topshiriq berdi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyati oldiga jamoat tartibini saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish, aholi gavyum bo'ladigan joylarda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlari va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan choralarini ko'rish vazifasi qo'yildi.

O'ZA

Munosabat

QUTLUG' TASHRIF

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 25-26-mart kunlari Namanganga navbatdagi tashrifi tarixiy ahamiyatga egaligi bilan nafaqat viloyat, balki butun vodiylar qalbidagi qoladigan bo'ldi. Negaki, har tashrif chog'ida katta-katta loyihalarga start berilyapti, yirik loyihalar ishga tushyapti, bu viloyat iqtisodiyotini ko'tarish bilan birga, aholini muqim va yuqori daromadli ish bilan ta'minlash, farovonligini oshirishga qaratilgan xalqparvar siyosatning bir namunasi, albatta.

Yurtimizda Navro'z ayyomi shukhi kezib yurgan shu kunlarda, qolaversa, muborak Ramazon oyidagi ushbu tashrifning ilk manzili 10 ming xildan ziyod zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi “Gavhar grup” korxonasi boshlanganida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor.

Mahallalarga sanoatni olib kirish, ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va viloyat salohiyatini yuksaltirish borasida yangi imkoniyatlarini ishga solish bo'yicha ko'rsatmalar faqat Uychi tumani Qumtepa mahallasi ahlini emas, balki butun namanganliklarni mamnun etdi.

Yillar davomida investitsion jozibadorlik, xalqaro hamkorlikdagi kelishuvlar poytaxtning o'zidagina hal etilar, o'sha yerda shartnomalar imzolannadi. Hozirchi? Endi har bir hududni kompleks rivojlantirish maqsadida viloyatlarning o'zida to'g'ridan to'g'ri xorijlik investorlar

bilan shartnomalar imzolaniib, loyihalar amaliyotga tatbiq etilayotir. Yangi ishlab chiqarish obyektlari, ish o'rinlari yaratilayotgani mana shu insonparvar siyosatning amaliy ifodasidir.

Birgina misol, davlatimiz rahbarining tashrif davomida umumiy qiymati 4 milliard dollarlik 47 loyihadan 2 milliard 300 million dollarlik 17 tasning taqdimoti o'tkazildi. Bu loyihalar Rossiya, Xitoy, Turkiya, BAA, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Niderlandiya, Eron, Pokiston singari mamlakatlarning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda bajarilishi viloyatning qurilish, ishlab chiqarish sohasidagi ishtirokini rivojlantiribgina qolmay, uning turizm salohiyati, milliy an'ana va qadriyatlarini butun dunyoga olib chiqishda ham muhim omil bo'ladi.

Davomi 2-beta

BOY BERILAYOTGAN BOYLIK

Uni tiklash kambag'allikni qisqartirishning eng samarali yechimidir

KUN MAVZUSI

Amirxon bobom yoshi saksonga yaqinlashganida ham tomorqa va bog' oralab ishlab yurardi. Yoshligidan suyagi mehnatda qotgan, keksaygach ham unchamuncha yigitdan ko'p ish qiladigan, mehnatsiz yashashni bilmaydigan mo'ysafid edi. Bir safar oyog'idan yara chiqdi. Ukol-dori nimaligini bilmaydigan bobom qo'ltiqayoqqa suyandi. Oyog'og'ridan ko'ra, bekorchilik ko'proq g'am bergani rosti.

O'shanda erta bahor mahali, ayni tomorqada ish ko'paydigan payt mehmonga bordim. Bobomni xonasidan topaman, deb o'ylagandim, qayerda, kichkina stolni egat ustiga qo'yg'an, jarohati bor oyog'ini uzatib o'tirganicha begona o'tlarni yulyapti. Salomlikdan so'ng suhbatini olmoqchi bo'ldim.



Gapni topib, aytak qulfi dili ochilib guring berardi. Shuni o'ylab “Yerni boqsang, yer seni boqadi”, degan naqlni eslatdim.

— Yer boqilmaydi, unga mehr berib ishlasang bo'ldi! — dedi bobom doimgiday cho'rtkesarlik bilan. — Odam rizqini yerdan terib olsa, g'ubori ketadi, manmanlik

qilmaydi. Birovning qo'lga qarab sarg'ayib o'tirmaydi.

So'nggi kunlardagi xabarlarni kuzatib, bobomni, u aytgan o'sha gaplarni esladim. Davlatimiz rahbari Sayxunobodga tashrifi chog'ida ham, Namangan viloyati faollari bilan muloqotda ham tomorqadan daromad

olishga alohida urg'u berdi. Ayniqsa, aholisi zich yashaydigan vodi viloyatlari uchun har qarich yer qadrlil. Mirishkorlar yerdan foydalanishning hadisini olgan. Ammo Namangan viloyatida imkoniyatlar to'la ishga solinmagan.

Masalan, viloyatda 56 mingta tomorqada mahsulot yetishtirilmayapti. Ayniqsa, Uychi tumani og'ir hudud. Tuman iqtisodiyotini o'nglash, kambag'allikni qisqartirish uchun, birinchi navbatda, ishsizlarga tomorqadan daromad topishni o'rgatish kerak. Bu borada Sayxunobod tajribasi asosida mahallabay ishlab, tomorqa va xonadonlardagi imkoniyatlardan foydalanib, aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari ko'rinishi ayni muddao bo'ldi. Jumladan, mahallalarga hokimlik va barcha iqtisodiy idora xodimlari birlashtiriladi. Ular har bir xonadon imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tomorqasi bo'lsa, undan samarali foydalanish, daromadini 60-70 million so'mga olib chiqish bo'yicha namuna yaratadi. Natijada tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yerlarda sarxil mevasabzavotlar yetishtiriladi. Bu esa, o'z navbatida, hududning eksport imkoniyatini kengaytiradi, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi yo'nalishlar rivojiga zamin yaratadi. Pirovardida oilalarga daromad, ro'zg'orlarga baraka kiradi.

Davomi 3-beta



Munosabat

QUTLUG' TASHRIF

Boshlanishi 1-betda

Xalqimizning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish ular uchun yaratilayotgan sharoitlardan seziladi. Prezidentimiz ayni shu masalada ham jonkuyarlik bilan nafaqat aholining yashash sharoitini yaxshilash, elektr ta'minotini yuqori sifat darajasiga olib chiqish, balki hududlarning iqtisodiy jon tomiri bo'lgan sanoat korxonalarining jadal sur'atlarida ishlashini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Endilikda elektr energiyasiga talabni qondirishdagi muammo kunlik masalalar qatoridan chiqariladigan bo'ldi. Boisi, tashrifning birinchi kunidayoq Uychi, Norin va Pop tumanlarida uchta elektr stansiyasi qurilishi boshlandi.

Tashrifning eng muhim nuqtasi Namangan shahrining Tinchlik stellasini ziyoboni bo'ldi. Xiyobonda ulamolalar, nuroniylar, keng jamoatchilik vakillari davlatimiz rahbari boshchiligidagi umumxalq iftorligi dasturxonida yig'ildi. Bu mehr-oqibat anjumani yurtimizning barcha hududlarida, shahar va tumanlarida ham o'tkazildi.

Shu muazzam maskanda 108 yoshli nuroniy, piru badavlat Ibrohimjon ota Xo'jayev yurtidoshlarimizning mehri va ehtiromi ko'zgusi, milliy udumlarimiz, qadriyatlarimiz ramzi sifatida davlatimiz rahbariga to'g'ri kiyirdi. Xalqimizga xos

bag'rikenglik, nuroniyarni har jihatdan e'zozlash an'anasi hamda Ramazoni sharif shukhi ila Ibrohimjon otaga "Traverse" avtomashinasi tuhfa qilindi.

Aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi katta maqsadlarni niyat qilib kelgan Prezidentimiz Namanganning yangi, "aqli shahar" qismidagi bunyodkorlik loyihalari bilan yaqindan tanishdi. Oltin vodiyning gavhari — azim Namanganni yanada obod etishdek ulug'vor rejalar viloyat faollari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida muhokama qilindi. Ishtirokchilar yig'ilish davomida yangi-yangi g'oyalar, istiqbolli loyihalar haqida to'g'ridan to'g'ri eshitib, shu kundan e'tiboran faoliyatida yangicha buriyish yashash shijoatini his etdi. Quyida yurtidoshlarimizning fikr-mulohazalari bilan tanishasiz.

YURTIMIZ TINCHLIGIGA KO'Z TEGMASIN

Tursunboy FAYZULLAYEV, Namangan davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi:

— Prezidentimiz muqaddas Ramazon oyi munosabati bilan iftorlik dasturxonida nafaqat taklif etilganlarni, balki butun xalqimizni muborak oy bilan chin dildan samimiy muborakbod etib, ezgu tilaklar bildirdi. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan turli tahlilali voqealar jarayonida yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik katta boylik, ne'mat ekani, buning uchun shukrona aytishimiz kerakligi ta'kidlandi.

Dasturxon atrofida o'tirgan barchaning ko'ngildan bir his-tuyg'u o'tdi: yurtimiz tarixida bu kabi xalqchil, insonparvarlik rishmalarini bog'lovchi, ko'ngillarga surur bag'ishlovchi, ezgulikka yo'g'rilgan ma'rifiy tadbir bo'lgan emas.

Haqiqatan, davlatimiz rahbari bugun xoh ichki, xoh tashqi siyosat bo'lsin, faqat bitta — bosh



g'oyani amalga oshirishga qat'iy bel bog'lagan va shu yo'lda izchil, xalqchil siyosat olib boryapti. Boshqa viloyatlarga tashriflaridan ham shuni bilish mumkinki, avvalo, xalqimizning bundan-da

yaxshiroq yashashi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim loyihalar bilan tanishib, ularni tezroq hayotga tatbiq etishni maqsad qiladi.

Har gal mana shu g'oya va o'ta dolzarb vazifalarni bajarishda bitta muhim omil alohida ta'kidlanadi: ilm, ilm va ilm. Shu orqaligina oldimizda turgan o'ta dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishimiz lozimligi qayd etiladi.

Bu Ramazon kunlari yoziladigan an'anaviy iftorlik dasturxonida birga, xalqimiz hayotida qadriyatga aylangan muhim bir ma'rifiy tadbir bo'ldi, deb hisoblayman. Shuning uchun ham dasturxon atrofida jam bo'lganlarning qalbidagi bir tuyg'u — yurtimiz tinchligiga ko'z tegmasin, degan istak tillarga duo bo'lib ko'chdi. Albatta, bunday ehsonlar orqali xalqimiz yanada jipslashadi va O'zbekistonimizning bundandajadal rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



MASHRAB NAMANGANGA QAYTMOQDA

Dilnoza AZIZOVA, "Yangi O'zbekiston — yoshlar ziyo maskani" axborot-kutubxonasi direktori:

— Bu galgi tashrif har galgidan ko'ra, fayzli va samarali bo'ldi. Tashrif davomida barcha sohalaridagi muammolar aniqlanib, ularning yechimi o'rganildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining Axsikentda "Sharq taronalari" festivali o'tkazilishi haqidagi ko'rsatmalari hammamizni behad mamnun etgan bo'lsa, Namangan farzandi Boborahim Mashrabga bo'lgan e'tibor butun viloyat ahlini quvontirdi.

Tashrif davomidagi muloqotlar chog'ida madaniyat vaziriga Mashrab qo'shiqlarini keng targ'ib etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga ko'ra, davlat muassasasi bo'ladimi yo xususiy korxonalar, ishchilar madaniy hordiq chiqarish chog'ida aynan Mashrab ijodiga mansub qo'shiqlarni ko'proq tinglashi kerak. Buni Namangan tajribasi sifatida mamlakatimiz bo'yab keng tatbiq etish vazifasi yuklatildi.

Shundan ham bilish mumkinki, Prezidentimizning viloyatimizga bu safargi tashrifi xalqimiz ma'naviyati va ma'rifati belgilab beruvchi hamda adabiyotga bo'lgan e'tibor va hurmatning kutilmagan qismi bo'ldi.



UMUMXALQ IFTORLIGI — MEHR-OQIBAT ANJUMANI

Ziyoviddin MANSUROV, Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo'limi raisi:

— Namanganga tashrif davomidagi eng asosiy nuqta — aholi vakillarining barcha toifalari bilan bir dasturxon atrofida tashkil etilgan anjuman bo'ldi, desam adashmayman.

Tilimizda umumxalq hashari, umumxalq bayrami, degan iboralar bor. Lekin umumxalq iftorligi, xalq ehsoni kabi tushuncha bevosita davlatimiz rahbarining xalqni rozi qilish yo'lidagi o'ziga xos sa'y-harakati, tashabbusi, ibrati desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Bu anjumanni faqat xalqparvar, millatparvar, insonparvar rahbaringiz qilishi mumkin. Dunyo turli talo't-p-u notinchliklar girdobida, o'zaro ishonchsizlik botqog'iga botib turgan bir paytda, yurtimizda Navro'z shukhi kezib yurgan ajib kunlarda, Ramazon oyida Prezidentimiz bilan dasturxon atrofida o'tirish menga ham nasib qildi.

Bugun odamlar ish istab emas, ish odamlarni istab qishloqqa borishi, sanoat zonalarini, degan maskanlar paydo bo'lishi islohotlar samarasidir. Misol uchun, Uychi tumanidagi Qumtepa mahallasida darvoza tayyorlayotgan hunarmandlar bilan suhbatlashdim. Mahalla raisi Zulfiyaxonning aytishicha, yoshlar oyiga 15-20 million so'm daromad qilyapti. Menga ma'kul kelgan jihat mahallaning biror-bir fuqarosi chet elda ish izlab yurgani yo'q. Ikkinchidan, o'sha darvozani kim eshigiga o'rnatasa, unga ham pul beriladi. "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyilining amaldagi samarasi bu.

Muloqotlar davomida Kosonsoyda stadion qurish masalasi ko'tarilgan edi. "Qani hisob-kitob qilinglar, qancha ketadi", dedi Prezidentimiz. Demochi bo'lganim, hozir muammolar tezda hal etilyapti. Viloyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, barpo etilayotgan gigant korxonalar, shoir Mashrab timsolida maqomini ko'tarish... Bunaqasi avval bo'lmagan.



AZM-U SHIJOATLI YOSHLARMIZ

Masturaxon NABIXONOVA, Namangan davlat pedagogika instituti talabasi, yoshlar yetakchisi:

— Boshqalarni bilmadimu, bu galgi tashrif menda juda katta va unutilmas taassurot qoldirdi. Buning asosiy sababi — Prezidentimiz bilan yuzmayuz ko'rinish baxtiga muvassaf bo'ldim. Yoshlar yetakchisi sifatida anjumanda ishtirok etishim bir umrga xotiramga muhurlandi.

Viloyatimizda 6 ta davlat va 3 ta xususiy oliyog'oh bor. Ular orasida yetakchi bo'lgan Namangan davlat universitetida o'zgarish qilish vaqti kelgani alohida ta'kidlandi.

Universitetda mavjud 71 ta ta'lim yo'nalishi 56 taga kamaytirilib, yangi adabiyotlar bilan to'liq ta'minlanadi. Ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv dasturlari yangilanib, iqtidorli talabalarning salohiyatini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Yig'ilishda oliyog'ohlardagi 65 ming talabadan 32 mingi boshqa viloyatlardan kelib o'qishi inobatga olinib, ta'lim dargohlari atrofidagi 43 ta mahallada uy yotoqxonalarini tashkil etish vazifasi ham belgilandi.

Ta'lim yo'nalishidagi islohotlar kelajak uchun qo'yilgan eng samarali qadam bo'lib, ilm olish darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekani ta'kidlandi. Haqiqatan, islohotlarning taqdiri, samarasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'liq javob bera olishiga bog'liq.



Ulug'bek RO'ZIMATOV tayyorladi.

SOVG'ADAN HAM KO'RA, E'TIBORDAN KO'PROQ QUVONDIM

Prezidentimiz bilan uchrashish bahonasida yana bir marta Namangan ko'chalarida sayohat qildim. Viloyatimiz jannatmonand o'lkaga aylanganini ko'rib, ko'zim quvnadi. Shunday yurtda, hozirgiday tinch-farovon davrda yashayotganim uchun shukrona aytdim.

Ibrohimjon ota XO'JAYEV, mehnat faxriysi

Ma'rifiy tadbir chog'ida davlatimiz rahbari bilan samimiy suhbat qildik. U yerda xalqimiz taqdiri uchun juda ko'p yaxshi gaplar aytili. Bundan barchamiz quvondik. Iftor vaqtida qilingan duo qabul bo'ldi, deyishadi. Biz nuroniylar xalqimiz farovonligini, yurtimiz tinchligini so'rab duoga qo'l ochdik.

Uzoq yillik tajribamdan bilaman, faqat so'rash, iltijoning o'zi yetarli emas. Inson harakat qilishi kerak. Prezidentimiz biz bilan suhbatda ham, joylardagi ishlar bilan tanishganda ham (buni televidzorda kuzatib, nabiralardan eshitib bildim) odamlarimizni mehnatga, harakat qilishga chaqiryapti. Faqat xalqni o'ylaydigan, uning boshqalardan kam bo'lmay, boy-badavlat, tinch-osuda yashashini chin dildan istaydigan rahbarning gapi bu.

Uchrashuvdan so'ng Prezidentimiz mehnat qilinglar, tomorroqqa qaranglar, tadbirkor bo'linglar, deb tinimsiz takrorlashining sababi nimada, deb o'yladim. Javobini topdim: muttasil mehnatga o'rgangan, shijoatli kishilar boshqalarni ham o'zi bilan hamqadam bo'lishini istar ekan.

Mana shunday da'vat, berilgan imkoniyatlardan ruhlanib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz faqat oldinga intilishi kerak. Bugun hammada o'zi, oilasi uchun mehnat qilib, hayotini yaxshilash imkoniyati bor. Avval bunday sharoit yo'q edi. Biz qanchalik og'ir kunlarni boshdan o'tkazmadik deysiz. Kolxozda tinimsiz mehnat qilib, nonga zor vaqtlarimiz ham bo'ldi. Bir asrdan ziyod umrim davomida hayotning har turli sinovlarini ko'rdim. Shukri, hammasi ortda, olis tarix bo'lib qoldi. Hozir zamon, davr boshqa.

Dehqonchilik qilib, halol mehnat bilan 8 o'g'il, 3 qizni kamolga yetkazdim. Ular davlat ishlarida ishlab, elimizga ozmi-ko'pmi xizmat qildi. Bugun ularning aksariyati o'zim kabi nuroniy yoshiga yetgan, nafaqada. Hozir 52 nabira, 100 dan ziyod chevara va 20 dan ortiq



evaram bor. O'ziga shukr, ularning kamolini ko'rib, xalqimizning, oilamning duogo'yi bo'lib yashash nasib etmoqda.

Avval yoshi ulug'lar, "eng muhimi, keksalikda baxtli bo'lish nasib qilsin", deyishsa, uncha tushunmasdim. Keyin bilsam, inson yoshligida sinovlarni yengib o'taverar ekan. Keksaygach mehrga, e'tiborga doimgidan ham ko'proq ehtiyoj sezarkan. Davlatimiz rahbarining sovg'asi deya yangi "Traverse" mashinasi olib kelishganida quvonganim boisi shunda. Meni sovg'adan ham ko'ra, ko'proq insonga e'tibor, mehr quvontirdi.

Hozirgiday farovonlik, tinchlik-xotirjamlik avval bo'lgan emas. Bunga osonlikcha erishganimiz yo'q. Buning qadriga yetishimiz kerak. Ba'zan bolalarimga nasihat ma'nosida "nafaqadamiz deb o'tirib olmaglar, mana, men hozir ham ishlayapman", deyman. Atrofimdakilarga halol mehnat bilan inson aziz bo'lishini doim uqtiram. Qo'lmdan kelganicha to'g'ri yo'lyo'riq ko'rsataman. Ular haqiga duoda bo'laman, shuning o'zi biz nuroniylar uchun eng muhim vazifa.

MUHIM VA TARIXIY O'ZGARISHLARGA YUZ TUTMOQDAMIZ

O'tgan qisqa davr mobaynida Namangan ahli katta o'zgarish va islohotlarga guvoh bo'ldi. Viloyatimizda ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi sohalarini keng rivoj topdi, eksport mahsulotlarining turi va hajmi ortdi. Ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari yangi qiyofa kasb etib, moddiy-texnik bazasi boyitildi, aholiga xizmat ko'rsatish sifati oshdi. Aholining turmush sharoiti yaxshilandi, real daromadlari barqarorlashdi. Ayniqsa, yoshlar va kichik sanoat zonalarini soni ortishi tadbirkorlik faoliyatini kengayishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga zamin yaratdi.

Odiljon MAMATKARIMOV, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Keyingi yetti yil ichida viloyatda 84 ta kichik va yoshlar sanoat zonasi ishga tushirildi. Hudud iqtisodiyoti 2 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 6 barobar, eksport hajmi 3 barobar oshib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 15,5 million so'mga yetdi. Kiritilgan 65 trillion so'mlik investitsiya hisobiga viloyatimizda 600 mingta yangi ish o'rnini yaratildi.

Albatta, bu ishlar yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi keng ko'lamlari, to'g'ri yondashilgan islohotlarning amaliy ko'rsatkichlaridir.

Davlatimiz rahbari har gal Namanganga tashrifi davomida mavjud muammolarimiz yechimiga qaratilgan yangi takliflarni ilgari surib, viloyatimiz salohiyatini oshirish uchun imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Bu gal eng asosiy masala aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish ekanini ta'kidlar ekan, viloyatimizda tanlab olingan kam daromadli 4 ming xonadon a'zolarining jon boshiga oylik daromadini 2 million so'mgacha oshirish, yana 4 ming xonadonga moliyaviy, texnik, maslahat va boshqa ko'rinishdagi amaliy yordam ko'rsatish, mahallalarda gulchilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik, uzumchilik, qulupnay va kartoshka yetishtirish salmog'ini oshirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatmalar berdi.

Bugun jahonda energiya manbalaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari salmog'ini oshirishga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Shunga monand ravishda yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida quyosh va shamol elektr stansiyalari soni yildan yilga ortib bormoqda. Davlatimiz rahbarining "Odamlarimiz farovon yashashiga sharoit yaratish yangi O'zbekiston siyosatining



asosiy poydevorlaridan biridir. Buning uchun katta-kichik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, ularning barqaror faoliyatini uchlilik energiya ta'minoti nihoyatda zarur", deya ta'kidlashi ham bu masalaning naqadar dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Bu ishlarni davom ettirish maqsadida Prezidentimiz viloyatimizda 1 ta gidroelektr stansiyalar kaskadi hamda 2 ta quyosh elektr stansiyasi qurilishini boshlash uchun ramziy tugmani bosib berdi. Bu loyihalar qiymati 1,1 milliard dollarni tashkil etib, quvvati 1228 megavattga yetadi. Eng quvonarli, Uychi tumanidagi GES to'liq yurtimizda ishlab chiqarilayotgan uskuna va texnologiyalar hisobiga quriladi.

Qisqacha aytak, davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifi, ilgari surgan taklif va tashabbuslari avvalgilari kabi viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga, ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga, viloyatimizda energiya ta'minotini barqarorlashtirishga, aholini doimiy ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirish orqali turmush tarzini yanada farovonlashtirishga hamda viloyatimiz ravnagini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Kun mavzusi

BOY BERILAYOTGAN BOYLIK

Uni tiklash kambag'allikni qisqartirishning eng samarali yechimidir



Boboravshan G'oziddinov, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bobom hayot bo'lganida yerni o'z holiga tashlab qo'yishlarni ko'rib nima derdi?! Qancha urinmay, qarovsiz yerni obod qilib bog' yaratgan, dehqonchilik, chorvachilik ortidan o'n farzandini uyli-joyli qilgan bobomning holatini tasavvur qila olmadim. Ammo ayrim yurtdoshlarimizning tomorqaga befarq qarashi oqibatida boy berilayotgan imkoniyatlarni raqamlar orqali tasavvur qilish mumkin.

Raqamlar esa quyidagicha: o'z tomorqasiga ega 5 million 105,5 mingdan ortiq xonadondan qariyb 176 mingtasi yerdan samarasiz foydalanmoqda. Avvalo, samarasizlikka izoh bersak. O'n sotix joyga o'rta daraxt ekib, yerga ketmon urmaslik yoki katta maydonga faqat jo'xori va beda ekish ham samarasiz foydalanishdir. Ya'ni biz odamlar tomorqada umuman, ishlamayapti, degan qarashdan yiroqiz. Lekin imkoniyatning katta qismini boy berayotganimiz ham achchiq haqiqat. Holat raqamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Agar unumdorligi past tomorqalarning har birini shartli ravishda o'rtacha 5 sotixdan deb olsak, umumiy hisobda salkam 9 ming gektar yerdan unumli foydalana olmayotgan bo'lamiz. Aslida, qishloq sharoitidagi aksariyat tomorqalar maydoni 5 sotixdan katta. Bu minimum hisob-kitobda ham juda katta yo'qotish, degani.

Keling, raqamlar tahlilini bir o'z keyinga qoldiramiz. Hozir nima uchun mehnatsevar, usta dehqon, deya e'tirof etiladigan yurtdoshlarimiz tomorqaga bor mehri bermayapti, degan savolga javob izlasak.

Beqaror bozor va kutilmagan kasallik

Inson doim foydani ko'zlab ish tutishi tabiiy. Ammo o'sha foydani qayerdan, qay yo'sin halol yo'l bilan undirishni bilmasligi uning uquvsizligidan dalolat. Tomorqadan foydalana olmayotganlarning aksariyati moddiy manfaat kam ekanini aytadi.

Yurtimiz dehqon bozorlaridagi holat beqaror, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qanday narxda sotilishini dehqonlar oldindan bilmaydi. Negaki, dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalari nima ekishni o'zi mustaqil hal qiladi. Hosilning cho'g'iga qarab bozordagi vaziyat o'zgarib turadi.

Masalan, qaysidir yili bir kilo piyozning narxi rastada o'n ming so'mgacha ko'tarilsa, sabzini suvtekin olish mumkin bo'ladi. Talab va taklif asosida ishlaydigan bozorda bu odatiy hol. Ammo qaysidir mahsulot arzon bo'lganida ko'pchilik zarar ko'radi. Chunki aynan o'sha yili tomorqa egalari asosan, o'sha ekinini ekan bo'ladi.

Ayni sabab tufayli keyingi yillarda ko'pchilik tavakkal qilishni istamay, dehqonchilikdan uzog'lashdi. Buni tomorqaga ko'pincha kartoshka, piyoz, yeryong'oq ekib kun kechirgan odam sifatida yaxshi bilaman. Bugun molga yemish bo'lsin, deya tomorqasida jo'xori yetishtirayotganlarning katta qismi dehqonchilikda zararga ketishdan xavotir oladigan odamlardir.

Dehqonlarimizni o'simliklardagi kasalliklar ham bezdirgan. Shuning uchun hozir ekinlar kasalligiga qarshi o'nlab kimyoviy dorilar sotilmoqda.

O'tgan yil kuzda amakim biznikiga mehmonga keldi. Uyiga qaytishda bozordan qirq kiloga yaqin pomidor sotib oldi. Ajablanarlisi, Surxondaryoda yashaydigan amakim dehqon, mo'l-ko'l tomorqasi bor. Shunga qaramay, shuncha pomidorni sakkiz yuz chaqirim olisdan uloviga yuk qilib olib ketdi. Sababi, pomidoriga kasallik yuqib, bir haftada qovjirab qolibdi. Tabiiyki, kasallik faqat uning tomorqasi bilan cheklanmagan. Ko'pchilik kutayotgan hosil nobud bo'lgach, bozordagi narx o'z-o'zidan oshib ketgan. Kutilmagan ofat hosilni yo'qqa chiqaradi. Narx keskin o'sadi va dehqonga zarar keltiradi. Tomorqadan baraka topishga ishonch susayadi. Maqolani yozishga hozirlik ko'rayotgan vaqtimda yurtdoshlarimiz bilan suhbatlashib, bunga yana bir bor amin bo'ldim. Ularning aksariyati shu ishonchsizlik sabab tomorqasida jo'xori yetishtirib, moliga berishni ma'qul ko'radi. Boshqacha aytganda, tomorqadan yetarlicha hosil olmaydi. Sababini so'rasangiz, yuqorida keltirilgan muammolar dehqonchilik qilishdan bezdirganini aytadi.

Imkoniyatdan to'la foydalana olmaymizmi?

Shu o'rinda dehqonlarimizni qiynayotgan mazkur masalalarga yechim bormi, deb so'rashingiz mumkin. Javobni esa soha mutaxassisidan eshitganimiz ma'qul.

— So'nggi yillarda aholi tomorqalaridan samarali foydalanishga oid jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. Sohaga doir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, keng imkoniyatlar yaratildi, — deydi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jam'armasi ijro etuvchi direktori o'rinbosari Elmurod Bozorov.

— Jumladan, jam'armamiz faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada tomorqachilikni rivojlantirishga ko'maklashadigan tizim yaratildi. Yangi tizimda "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida ishlagan e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, jam'arma "Tomorqa xizmati" MCHJlarni moliyalashtirmoqda. O'z o'mida ular hududda qanday ekin ekish foydali ekanini haqida tavsiya berib kelmoqda. Qolaversa, aholi tomorqa yerlarini shudgorlash, zarur urug'lik va ko'chat yetkazib berish, kasalliklarga qarshi kurashishda ham ko'mak beryapti. Shuningdek, aholi xonadonlariga ixcham issiqxona qurib berish, echki, qo'y, parranda, asalari uyalari, quyon yetkazib berish kabi xizmatlarni ko'rsatmoqda. Tomorqada yetishtirilgan mahsulotni sotishda ham yordamchi.

Ko'rinib turibdiki, tomorqada ishlab, yetarlicha daromad olish uchun imkoniyat yaratilgan. Masalan, "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili aynan bozor, narx-navo masalasiga yechim hisoblanadi. Afsuski, bunday qulaylikdan barcha birdek foydalana olmayapti. Tomorqalardan samarasiz foydalanishga doir raqamlar fikrimiz isboti.

To'g'ri, kimdir ayrim joylarda "Tomorqa xizmati" MCHJ tizimi yaxshi ishlamasligidan shikoyat qilishi mumkin. Lekin o'rni kelganda tomorqa egasi manfaatdor sifatida izlanishi, o'rganishi, kurashishi kerak. Zarurat tug'ilganda, quyi bo'g'indagi mas'ullarni ishlaganiga majbur qilsin. Aytishga oson, deyishga shoshmang. Boshqalardan yordam kutmay, o'z mehnati evaziga yaxshi natijaga erishayotganlar oramizda ko'p.

Masalan, Surxondaryo viloyati Qum-qo'rg'on tumanidagi Bo'ston mahallasida yashovchi Ikrom Ne'matovni olaylik. Ikrom aka mendan besh yosh katta. Maktabda izma-iz o'qiganimiz, qo'shni mahallada



bir-birimizni tanib ulg'ayganmiz. Endigina qirqinchi bahoridan oshgan I.Ne'matov maktabini tamomlagach, mol boqdi, dehqonchilik qildi. Shuning orqasidan uy-joy qildi, traktor, mashina oldi. Hozir uyining oldida o'n sotixdan oshiq joyga uzumzor barpo qilgan. Ochig'i, bu mahallada uzumchilik rivojlanmagan. Ko'pchilik kartoshka, piyoz, qovun-tarvuz va jo'xori ekish bilan cheklanadi. Ikrom aka uzumning eng bozorgir navlaridan topib ekib, bugun yaxshigina daromad topyapti.

ikkinchi, so'ng uchinchi ekin ekiladi. Shu tariqa ko'zlangan daromadga ega bo'ladi.

Bo'kaliik Charos Raimovanning 1 sotix yeri bor. Shu katalakdek joyga issiqxona qurgan. U yerda 50 turdagi gul ko'chatlarini yetishtirib sotadi. Ayni paytda 10 ming tup ko'chatning har birini 10 ming so'mdan sotishni boshlagan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, qahramonimiz 100 million so'm daromadni mo'ljal qilgan.

Endi yuqorida keltirilgan raqamlarga qaytamiz. Taxminiy hisobimizga ko'ra, qariyb 9 ming gektar tomorqa samarasiz turibdi. Shu raqamni ishbilarmon, usta dehqonlar olayotgan daromad bilan qiyoslasak. Hama ham gul ekib sotmaydi. Shuni hisobga olib, bir sotix tomorqadan o'rtacha 5 million daromad olish mumkin, deylik. Demak, salkam 9 ming gektarni 5 million so'mga ko'paytirsak, 4,4 trillion raqami hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, arzimadag ko'ringan erinchoqligimiz, dangasaligimiz hisobiga yiliga o'rtacha hisobda shuncha pul yo'qotilyapti, boy berilyapti.

Agar tomorqalarning o'rtacha hisobi 5 sotixdan ko'p bo'lishi mumkin ekanini, qolaversa, yer egalari yaxshiroq daromad ko'rish imkoniga egaligini hisobga olsak, bu ko'rsatkich ancha oshadi. Ko'tyapsizmi, o'tgan yil oxiridagi o'rganishlar

narsani tanimaydi. Vaholanki, XXI asr dehqoni kitob o'qigan, sohaga oid bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Hech bo'lmasa, qaysi navdan ekyapti, u suvni, yerdagi namlikni qanday qabul qiladi, qay holatlarda kasallikka chalinishi mumkin, degan birlamchi tushunchalarga ega bo'lishi shart. Yo'qsa, hosilni "kutilmagan"da boy beraveradi.

Ajdodlarimiz har bir ishni fundamental bilimlarga tayanib bajargan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Bobumoma" asarida bunga oid ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Unda yozilishicha, Bobur 1514-yili hozirgi Kobul viloyatida "Bog'i vafu" degan katta bog' yaratadi. O'sha yili Paxor Xonni yengib, Lahor va Dibalpur shaharlarini egallaydi. "Bog'i vafu"ga o'sha yerning keltirilgan banan ektiradi. Ularning hosili yaxshi bo'ladi. Shuningdek, boqqa shakarqamish ham ektiradi. Shu tariqa shakarqamishni Buxorodan Badaxshongacha tarqatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur Panipat shahridagi "Kobul-Baxt" bog'ida O'rta Osiyo qovuni va uzumini o'stirish bo'yicha tajriba o'tkazadi. Buning uchun baxtlik dehqon taklif qilinadi. "Bobumoma"da yozilishicha, qovun hosili yaxshi bo'ladi. Umuman, Bobur Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarida ko'plab meva va poliz ekinlarini almashtirib ekish bo'yicha tajriba qiladi.

Bobur shoh edi. U bog' oralab ishlab yurmagan. Lekin o'z ishini ustalari bo'lgan dehqon va bog'bonlarni topib, tajribasidan foydalangan. Bu o'sha zamonlarda dehqon va bog'bonlar o'z ishini ustasi bo'lgani dalildir. Ehtimol, qadimda sohaga oid ilmiy adabiyotlar kam bo'lgandir. Lekin

bor fermerlarga tegishli gap emas. Tomorqasiga suv ochayotgan har bir fuqaroning insoniylik burchi. Agar biz sug'orishning zamonaviy yo'llarini o'zlashtirsak, suvsizlik muammosi to'siq bo'la olmaydi.

Hayotiy misol. Bolaligim Qumqo'rg'on tumanida o'tgan. Uyimiz atrofi baland-past tepaliklar. Bahorda yomg'ir suvi soylarda, sel yo'llarida to'planib oqadi. Odamlar sel yo'lga to'g'on qurgan. Suv to'planadigan joy obdon yumshatilgan. Chunki yer qancha yumshasa, suv shuncha chuqur ketishini, namlik ko'proq saqlanishini ajdodlar yaxshi bilgan. Yomg'ir suvi kelib to'plangach, muayyan vaqt ko'lib turgan. Bahor adolagach, yomg'ir tinib, ko'l suvi tortilgan. Yerning namligi yo'qolmasdan yerga urug' tashlangan. Bunday joyga ekilgan ekin sug'orilmagan, yerning namligi xirmon ko'tarishga yetarli bo'lgan.

Bugun ham ayrim joylarda shu usuldan foydalanish mumkin. Qolaversa, tomchilatib, yomg'irliq sug'orish texnologiyalari xorijda allaqachon ommalashdi. Mamlakatimizda shu tizimda sug'orishni yo'lga qo'yish uchun qator imtiyozlar berildi. Negadir biz bunga yetarlicha rag'bat bildirmayapmiz. Axir cho'l, suv kam hududlarda bundan unumli foydalana bo'ladi. Bez ustiga, ayrim dehqonlar o'z rizqi uchun kerak bo'lgan an'anaviy bilimlarni esdan chiqaryapti. Kitobxonlikni keng targ'ib etishdan ko'zlangan maqsad ham shu edi. Biz esa buni juda tor doirada tushunamiz, kitob desa faqat badiiy adabiyotni ko'z oldimizga keltiramiz.

Tajribasiz dehqonlar qanday paydo bo'ldi?

Nazarimda, sobiq tuzumning qattol siyosati qishloq xo'jaligida ham yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Aynan shu davrga kelib, biz qadim an'analaridan uzildik. Respublika yoppasiga paxtaga ixtisoslashdi. Ayrim joylarda oz miqdorda poliz, g'alla, chorva uchun jo'xori va beda ekilardi, xolos.

To'g'ri, o'sha vaqtlarda ham usta dehqonlar bor edi. Shu bois, poliz ekinlarimiz juda mashhur bo'lgan. Lekin xalqning katta qismi tomorqasida ishlamadi. Umri paxta egalari o'tkazdi. Shu orqali biz dehqon, ammo yerni tanimaydigan, bilimaydigan avlodga aylandik. Chunki an'anaviy ustoz-shogird maktabi ko'lami keskin qisqarib, paxta, g'alla kabi sanoqli ekinlarni ekishga moslashdik. Qadim ajdodlardan o'tib kelayotgan usta mirishkorlik kam sonli kishilardagina saqlanib qoldi. Shu jarayonda sohaning umumiy jihati bo'lgan suvchilik maktabi yo'qolmadi. Chunki gektarlab yerlarni sug'orish kerak edi...

Qanday yo'l tutish kerak?

Tomorqasi bor har bir fuqaro sohaga oid zamonaviy bilimlarni o'rganishi shart. Dehqon kechki payt ketmonni qo'ygach, qo'lga kitob olsin. Agar mutolaga toqati yetmasa, usta dehqonlar tajribasini o'rganishi kerak. Hozir shogird tushish uchun uydan chiqish ham shart emas. Hammasi qo'limizdagi telefonda bor.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bog'bonlar, chorvadorlar, dehqonlarning guruhlarni kuzatib boraman. Menga o'sha guruhlardagi samimiyat yoqadi. Kimdir o'zini qiynayotgan savolni o'rta tashlaydi. Boshqalar o'z tajribasiga tayanib, unga to'g'ri maslahat beradi. Shu tariqa ekin ekishdan tortib, qanday parvarish qilish, hatto qayerga qancha narxda sotish mumkin ekanigacha ochiq va batafsil ma'lumot beradi. Bizdan talab etiladigan, o'zimizning foydamiz uchun qunt bilan mehnat qilish.

Ayni paytda targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish kerak. Quyi bo'g'indagi mas'ullar tomorqadan foydalanish masalalari bilan har kuni shug'ullanishi zarur. Chunki uzon vaqt davomida yo'qotilgan ko'nikmalar qisqa muddatda qayta tiklanib qolmaydi.

Uzumni saralab, bir qismini Termizga olib borib, eksportchilarga sotaman, — deydi Ikrom Ne'matov. — Saralashdan qolgan ham o'zimizning bozordagi uzumlardan qolishmaydi, sifatli, mazali. Mahalladagi to'y-ma'rakalarda bizning uzumdan dasturxonaga qo'yilyapti. Uzum yetishtirish haqida puxta bilimga ega emasdim. Avval uzumchilikni o'rgandim, bog'bonlarni izlab topib, maslahatlashdim. Hozir ham usta bog'bonlar bilan maslahatlashib ish tutaman.

Ikrom akaga hech kim kelib tomorqada ishlagan boy bo'lasan, yaxshi daromad topasan, demagan. Bolaligidan yerga, chorvaga mehr qo'yg'an. Hozir tinim bilmay ishlaydi. Bobom aytganiday, yerdan riziqini terib zavqlanadi. Ximron ko'tarilganda hosilga qarab rohat oladi. Muhimi, birovdan imdod kutmaydi.

Hayotiy misol va xomcho't

Shu kunlarda respublika ishchi guruhi vakillari va Toshkent viloyati hokimligi mas'ullaridan iborat guruh Piskent tumanidagi "Istiqlol" MFYda aholining tomorqadan foydalanish holatini o'rgandi. Mahallada 518 ta xonadonda jami 77 gektar tomorqa mavjud. Hudud sersuv, unumdor yerda joylashgan. Bu mahallada tomorqadan yaxshi hosil olayotgan xonadonlar yo'q emas. Ammo to'rt murchasi sog'lom bo'la turib hayotdek maydonni bo'sh qo'yganlar ham bor. Umuman olganda, holat qoniqarli emas!

Shu o'rinda Toshkent viloyatida yashab, tomorqasidan yaxshi daromad topayotgan yurtdoshlarimiz haqida to'xtalib o'tsak. Bekobod tumanidagi Mallaboy mahallasida yashovchi Mayramoy Ahmedova 5 sotix tomorqasidan 100 million so'mdan ziyod daromad olayapti. Shu kunlarda issiqxonada baqlagan yetilmoqda. Hosil bozorga chiqqach,

Kimdir ayrim joylarda "Tomorqa xizmati" MCHJ tizimi yaxshi ishlamasligidan shikoyat qilishi mumkin. Lekin o'rni kelganda tomorqa egasi manfaatdor sifatida izlanishi, o'rganishi, kurashishi kerak. Zarurat tug'ilganda, quyi bo'g'indagi mas'ullarni ishlaganiga majbur qilsin. Aytishga oson, deyishga shoshmang. Boshqalardan yordam kutmay, o'z mehnati evaziga yaxshi natijaga erishayotganlar oramizda ko'p.

sabab samarasiz, deya topilgan tomorqa egalari qancha daromadni boy bergan!

Unga ega bo'lish uchun juda ko'p mehnat talab etilmaydi, aslida. Agar ko'proq mehnat qilinsa, maqolamiz qahramonlari kabi bir sotixdan 10 millionlab mablag' topish mumkin edi. Unda raqamlar keskin o'zgaradi. Hukumat tomonidan imkoniyat yaratilgan, yaxshi daromad topish mumkin ekan, nima uchun ilg'orlab keta olmayapmiz?

Muammoning asl ildizi qayerda?

Yuqorida bozorda narxning kutilmagan tushib ketishi va kasalliklar haqida fikr yuritgan edik. To'g'ri, bugun dehqonlarni shu muammolar qiynayapti. Ammo har bir masalaning yechimi bor. Faqat uni izlab topish, natijaga ishonish, kurashish zarur.

Avvalo, zamonaviy dehqon ishbilarmon bo'lishi kerak. Biz gohida bu so'zni juda jo'n tushunib, uni olib-sotar, degan ma'noda qabul qilamiz. Aslida, ishbilarmon hamma ishni aql bilan bajaradi. Buning uchun, albatta, sohaga oid bilimlarni o'zlashtirish, kitob o'qish kerak. Negaki, zamonaviy dehqon faqat ketmonga suyanib natijaga erisha olmaydi. Afsuski, bugun ayrim dehqonlar faqat ketmondan boshqa



2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

Bugun biz ko'p tila oladigan gender tenglik masalasi bundan bir necha asr oldin paydo bo'lgan feminizm harakatining zamonaviy hamda aniq maqsadlarga asoslangan faol ko'rinishi hisoblanadi. Gender, ya'ni turli jinslar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularga barcha sohalarida erkaklar bilan teng imkoniyat va sharoit yaratib berish hozir har bir davlat oldidagi muhim vazifaga aylangan. Hatto bu boradagi natijalar o'sha mamlakatning mavqei oshiruvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Gap faqat xotin-qizlarga hurmat ko'rsatish, ularni erkaklar bilan teng ko'rishdagina emas. Tahlillarga ko'ra, ayollarning ijtimoiy faolligi rivojlanish omillariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni xotin-qizlardagi mas'uliyat, ishchanlik, o'z ishiga talabchanlik qaysi sohada bo'lmasin o'sishga olib boradi. Xorij kompaniyalaridan biri tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiyotda ayollar ishtirokining 25 foizga oshishi yalpi ichki mahsulotning 11 foiz ko'payishiga olib kelar ekan. Shu bois, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jahon ijtimoiy-iqtisodiy trendlaridan biriga aylangan va uni rivojlantirish masalalari bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar shug'ullanmoqda.

Aytish joizki, gender tenglikni ta'minlashda O'zbekiston hech bir davlatdan kam emas. Ayniqsa, keyingi 7-8 yil ichida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning roli keskin oshdi. Shu yilning 7-mart kuni

MUSTAHKAM IMORAT BEKASI

Qulni parvarishlash juda qiziq jarayon. Bir xil turdagi gulni ikki odam o'stirsa, ikkining o'sishi ham, ko'karishi va gullashi ham turlicha bo'ladi. Odami bog'liq, degan gapda jon bo'lsa kerak. Tadbirkorlik ham shunday. Sharoit va imkoniyatlar bir xil degani, undan hamma birdek to'g'ri foydalanish olishini anglatmaydi. Biznes egasiga aylanish uchun uning uquvini olish, izlanish va mehnat qilish kerak.

Qashqadaryolik Aziza Popova 6-sinfda o'qib yurganida 10 dona xitoy guli qalamchalarini olib, bo'yoq qutillariga ekadi. Dugonalaridan farqli u ekan qalamchalarning bari ko'kardi. Gullarni maktabga olib borib, 7 tasini sinfdoshlariga sotadi. O'shanda tadbirkorlikning ilk uchunlari paydo bo'lgan bo'lsa kerak. Keyinchalik oliy o'quv yurtini tamomlagan Aziza 2003-yilda turmush o'rtog'i bilan "Ulkan qurilish maxsus servis" MCHJga asos soldi va bugungi kunda tovar aylanmasi 50 milliard so'mdan ziyod bo'lgan katta qurilish kompaniyasi rahbari.

Ochig'i, ayollarning qurilishdek og'ir sohada tadbirkorlik qilayotgani hozir odatiy holga aylangan. Ammo Aziza opa ish boshlagan vaqtlarda bu kamyob hodisa edi va 20 yil oldin tadbirkor ayol uchun qiyinchiliklar bo'lgani tabiiy.

Erkaklar qurilish sohasida ayol rahbarlarni qabul qilishi qiyinroq. Ya'ni qo'l ostingizdagi erkaklar rahbar ayolning quruvchilik sohasini tushunishiga ishonchsiz qaraydi, — deydi Aziza Popova. — Ish boshlagan yillarimiz boshqa qiyinchiliklar uchardi. Qurilish texnikalari ayol uchun moliyaviy yordamga ehtiyojimiz bo'lgan, ammo bankdan kredit olish juda katta muammo edi. Texnika va maishiy bazaning yo'qligi tender tanlovlarda qatnashishimizga to'sinlik qilardi. O'zim iqtisodchi bo'lganim uchun har bir so'mni tejadim, o'z uyimni ofis qilib ish boshlaganman. Bir necha yil deganda, pul yig'ib, 2 ta qurilish texnikasi oldim va tender tanlovlarda qatnashib, katta obyektlar olib qurishni boshladim. Qurilish mollarini Xitoydan olib kelardim. Umuman, biznesda doim qiyinchiliklar bo'ladi. Lekin qo'llab-quvvatlov bo'lsa, ularni yengib o'tish oson kechadi. Hozir tadbirkorlarimiz soni ortib borayotgani boisi ham shunda. Asossiz tekshiruvlar, tadbirkorlik faoliyatiga to'siqlarga chek qo'yilib, sohada barcha imkoniyatlar yaratib berilyapti. Davlat va soliq idoralari, banklar tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatmoqda.

Aziza opa zamonaviy ayol, katta tadbirkor bo'lish bilan birga, yaxshigina uy bekasi hamdir. Oilasini o'zi quradigan binolari kabi mustahkam tutishga intiladi. Uch farzandning onasi. Ishda ham, oilada ham turmush o'trog'i yonida tirik bo'lib turadi. Qahramonimiz ayol doimo oilasiga e'tiborli bo'lishi, farzandlar tarbiyasini ham birdek olib borishi lozim, deb hisoblaydi. Ayniqsa, tadbirkor ayol hamma narsaga ulgurishi kerakligi, hamisha o'z ustida ishlash, har qanday yoshda ham rivojlanishdan to'xtamasligi lozimligini ta'kidlaydi.

Ayni shu jihatlar uning o'zida mujassam. Hamon gul parvarishlashni xush ko'radigan Aziza opa bo'sh vaqtda kitob o'qish, yangi yo'nalishlarda bilimni oshirishni xush ko'radi. Shaxsiy rivojlanish kurslarida o'qishga ham vaqt topadi. Atrofdagilar uni bugungi kunning ilg'or, zamonaviy tadbirkor ayoli deyinlari bejiz emas.

Ayol va TADBIRKORLIK

Ikki tushuncha birlashib, iqtisodiy trendga aylanmoqda

TADBIRKOR — KERAK BO'LSA, 24 SOAT ISHLASHI LOZIM

O'zbekiston, chin ma'noda tadbirkorlar mamlakatiga aylanmoqda. Joriy yil nomi buning yaqqol misoli. Yil boshidanoq biznes vakillariga qator imtiyozlar, qo'shimcha imkoniyatlar berila boshladi. Va mazkur jarayon faol davom etmoqda. Bu imkoniyatlarining bari, albatta, xotin-qizlarga ham tegishli va ular so'zsiz bulaning baridan teng foydalanadi.


Hozir mamlakatimiz aholisining 17 milliondan ziyodi xotin-qizlar bo'lsa, birgina kichik biznesda soha vakillarining 25 foizi ayollar hissasiga to'g'ri kelyapti. Yurtimizda yaratilgan qulay tadbirkorlik muhiti, unda xotin-qizlarga berilayotgan alohida imkoniyat va imtiyozlar opa-singillarimizni biznes qilish, o'z kasb-hunari ortidan daromad topish, hududlar rivojiga hissa qo'shishga undamoqda. Buning ortidan ular zamonaviy, bilimli, haqiqiy ishbilanmon ayolga aylanib, xalqaro tadbirlarda faol ishtirok etyapti, o'z mahsuloti bilan jahon maydoniga chiqyapti, dunyo keyyapti, yanada yaxshi yashashga intilyapti. Endi tadbirkorlik ayollar uchun qo'rquv va mashaqqat emas, balki zamonaviylik belgisiga aylandi.

Toshkent viloyatining Parkent tumani Kumushkon qishlog'ida yashaydigan Inobat opa G'iyosova ham kattagina oliyivoxona rahbari, turizm yo'nalishida xizmat ko'rsatadi. Tadbirkorlikni bundan yigirma yil oldin yosh bolalari bilan boshlagan ayol o'tgan yillar davomida ozmuncha qiyinchilik ko'rmadi. 2017-yilda oilaviy korxonasi sifatida rasman ro'yxatdan o'tgach, yelkasiga ofto'g'ri boshqa ko'plab tadbirkorlar qatori erkin faoliyati uchun keng yo'l ochildi.

Ish boshlagan kezarim bolalarim yosh, oila tibratish ancha qiyin davrlar edi, — deydi Inobat opa. — Ham davlat ishida ishlash, ham farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish qiyin bo'lgani uchun uyda turli shirniklar, taomlar, sut mahsulotlari tayyorlab, sotgani olib chiqqa boshladim. Kumushkon Parkent tumanining eng chekka qishlog'i, ancha tepalikda joylashgani bois, bu yerda ishlash chiqarish korxonasi yo'q. O'sha vaqtda uyimizga yaqin joyda faqat bita baza bo'lardi, mahsulotlarimizni sotish uchun o'sha yerda olib borardim. Shu bilan birga, qishlog'imiz ziyoratgoh etagida joylashgani tufayli turli hududlardan mehmonlar, sayyohlar kelib turardi. Shunda o'zimiz mehmon uylari tashkil etishimiz kerak, degan fikrga keldim. Hovlimiz ichida bog' barpo qilib, so'rtlar o'rnatdik, 4 kishiga mo'ljallangan mehmon



uyi tashkil qildik. Shunday qilib, 1998-yilda tadbirkorlik faoliyatimni boshlaganman. U vaqtlari yakka tartibdagi tadbirkorlik, degan narsalar bo'lmadi, firma ochib, moliyaviy masalalarni hal qilishga to'g'ri kelgan. Tadbirkor odamga har tomonlama qiyin edi, ayollarga-ku, o'n karra og'irroq bo'lgan. Soliqchilar, turli davlat tashkilotlari tomonidan to'siqlar ko'p bo'lardi. Gapirsa gap ko'p, muhimi, hammasi ortda qoldi. Hozir bulaning aksidan xursand bo'laman. Adliya bo'limi xodimlari kelib, qanday muammo



bo'lsa, uning o'zida hal qilib beryapti. Ayniqsa, bank bilan ishlash va kredit olish masalasida faol ishtirok bo'lgan. Shaxsan o'zim keyingi yillarda biror marta bank eshigini qo'nganim yo'q, bank xodimlarining o'zlari kelib, eng kam foizdagi imtiyozli kreditlar taklif etyapti. Xullas,

hozir qaysi yo'nalishda bo'lmasin tadbirkorlarning yayrab ishlaydigan davri keldi.

2017-yilda davlatimiz rahbari tomonidan Kumushkon turizm qishlog'i, deb e'lon qilingach, shu yo'nalishdagi tadbirkorlikka qiziquvchilar safi yanada kengaydi. Hududga sayyohlar oqimi, mehmon uylariga talab ham oshdi. Inobat opa istiqomat qiladigan Chashma mahallasining o'zida keyingi yillarda 70 ga yaqin mehmon uylari tashkil etildi.

Parkent azaldan xordiq chiqarish uchun og'zal va so'lim tabiatli maskanlardan biri. Ayniqsa, bahorda u yanada chiroy ochib, boshqa joyda topilmaydigan ko'k samsalari odamlarni o'ziga chorlaydi. Parkent uzumlarini-ku, ta'riflashga hojat bo'lmas kerak. Xullas, ana shu tumanning turistik salohiyati yildan yilga oshib, hududda nafaqat ekoturizm, balki gastroonomik turizm rivojlanib bormoqda. Kumushkon qishlog'i ham ko'pchilikka yaxshi tanish. Ilgari odamlar u yerga ko'proq ziyoratga borardi. Hozir esa ekoturizm ommalashib, mehmonlar oqimi oshgan. Inobat opa uzoq yillar shu yo'nalishda tadbirkorlik qilib kelayotganiga qaramay, 2017-yildagina rasmiy ro'yxatdan o'tib, yuridik shaxs sifatida "Kumushkon saxovati" oilaviy korxonasini tashkil etdi. Oilaning deyarli barcha a'zolari shu ishning ishtirokchisiga aylangan. Tadbirkor ayolning 7 nafar farzandi bilan birga, kelinlari, qarindoshlari

Odatda, erta bahordan avgust oylarigacha mehmonlar ko'p bo'ladi. Ularning maroqli hordiq chiqarishi uchun shinam, zamonaviy mehmon uylari tashkil etilgan. Uylarning ekologik toza, yashil texnologiyalarga asoslangani, ayniqsa, xorijlik mehmonlarda katta qiziqish uyg'otaypti. Tashrif buyuruvchilar orasida Markaziy Osiyo, Yevropa davlatlaridan keladigan sayyohlar ko'pchilikni tashkil etadi. Mehmonlarni Kumushkonning toza havosi, so'lim tabiati, mineral suvlari, issiq buloqlar, ko'k somsa, kabob singari taomlari ko'proq o'ziga tortadi. Sayyohlarning aksariyati nafaqat dam olish, balki sog'liqlarini tiklash, ziyorat qilish maqsadida keladi. Qolaversa, tadbirkorlar oilasi tomonidan sayyohlarga sport turizmi, ekstremal sayohat, sayyohlik marshrutlari tashkilotib beriladi. Yaqinda 10 kishilik yangi mehmon uyi foydalanishga topshirildi. Yana 20 o'rinni mehmon uyi qurilishi bitay deb qoldi, mavsumga tayyor bo'ladi. Buning ortidan qo'shimcha 2-3 ta yangi ish o'ri ham yaratiladi.

Inobat opa tadbirkorligi ortidan yetti farzandini o'qitib, uyli-joyli qildi. Qishlog'idagi boshqa yoshlarni ham doim qo'llab-quvvatlashga intiladi, kontrakt pullarini talab beradi, ish bilan ta'minlaydi. Sodda, samimiy ayol sira mehnatdan qochmaydi. Uning ana shu mehnatlari e'tirof etilib, joriy yil 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida davlatimiz rahbari opani "Shuhrat" medali bilan taqdirledi.

— Davlat mukofoti berilishini eshitganimda, to'g'risini aytсам, ishonmadim, — deydi qahramonimiz. — Chunki Parkent o'zi olis hudud, bizing Kumushkon qishlog'imiz esa undan ham uzoqda joylashgan. Shu yerlarda 20 yildan ortiq turizm sohasida ish olib borgan bo'lsam, menga e'tibor berishadi, deb o'ylamagandim. Oddiy qishloq ayoli uchun bu juda katta mukofot. Ham xursand bo'ldim, ham faxrlandim. Kamtarona mehnatimni yuqori baholaganlaridan quvonдим. Davlatimiz rahbari bilib ko'rishganimda, hali Parkentda juda katta o'zgarishlar qilinishi, turistik jihatdan Bo'stonliqdan kam bo'lmagilini ta'kidladi. Bu biz, tadbirkorlarga yanada kuch bag'ishlaydi. Parkentliklar o'zi mehnatkash xalq. Kichik imkoniyat bo'lsa ham, shundan foydalanishga, ko'proq mehnat qilishga intiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda tadbirkor kerak bo'lsa 24 soat ishlashi lozim. Yangi ko'pyalar topib, amaliyotda qo'llashi, doim izlanishda bo'lishi, faqat olg'a qadam tashlashi zarur. Chunki shunga yarasha imkoniyat ham mavjud. To'g'ri, hamma sohada bo'lgani kabi turizm yo'nalishida ham o'ziga yarasha qiyinchiliklar bor. Mehmonlar bilan ishlash, ularning ko'ngliga yo'l topish oson emas, ammo ular miriqib dam olib, minnatdorchilik bildirganida barcha charchoqlarim chiqib ketadi.

BIR KUNDA RIVOJLANIB KETGAN BIZNES

Dunyoga mashhur kosmetika firmasining asoschi Este Lauder "Men muvaffaqiyat haqida orzu qilmadim, o'ziga ishonchsizlik dadi qadam tashlashga to'sinlik qiladi. Ayniqsa, qishloq sharoitida xotin-qizlarning tadbirkorlikni boshlashi katta jasorat sanaladi. Keyingi yillarda bu qarashlar



o'zgarayotgani quvonarli. Hozir opa-singillarimiz o'zini biznesda sinab ko'rishdan qo'rqmaypti, aksincha, sohaga yangi yo'nalishlar olib kirishga intilyapti.

Namanganlik yosh tadbirkor Qamara Jaylobova ham barini noldan boshladi. O'tgan yili tog'ning qurt mahsulotlarini noodatiy qadoqlab, suratini ijtimoiy tarmoqlarga joyladi. Kutilmaganda, ertasi kunioyq Qozog'istondan 1 tonna qurt mahsulotiga buyurtma tushdi. Ayol qadoqlashga o'zi ulgurmasligi bois, qarindoshlar, qo'shnilarni yordamga chaqirdi. Ikki kun ichida buyurtmani egalari yetkazdi. Shundan so'ng yurtimizning turli hududlaridan buyurtmalar tusha boshladi. Shu tariqa Qamara opa a'zolari, qo'shnilarini ish bilan ta'minladi va o'tgan yili may oyida tashkil etilgan "Tog' mahsulotlari" korxonasini yuritib kelyapti.

— Asli kasbim o'qituvchi. Birin-ketin farzandli bo'lganim sababli uyda qolganim, — deydi Qamara. — Bir kuni televizorda tadbirkor xotin-qizlar faoliyati va ularga berilayotgan imkoniyatlarini ko'rib havas qildim va biror ish boshlash harakatiga tushdim.

Qishloqda nima sotsa xaridorgir bo'lishini o'yladim. Lekin pulim yo'q edi. Shunda tog' mahsulotlari xayolimga keldi va qurtlarni noodatiy qadoqlaganim ko'pchilikka qiziqish uyg'otdi. Buyurtmalarimning birdaniga ko'payib ketishi meni bir oz shoshirib qo'ydi. Chunki daromad ham shunga yarasha ortib borardi, men esa bu sohada bilimim yetarli bo'lmagani bois, pullarni to'g'ri ishlatishni bil-maganman. Yangi xodimlarni qanday jalb qilish, hamkorlar bilan kelishuvlarga erishishda ham uquvim yo'q edi. Biznesda to'g'ri boshqaruv va aniq yo'naltira bilish eng muhimi ekan, buning uchun esa bilim zarurligini tushunib yetdim. Darhol yurtimizdagi muvaffaqiyatli tadbirkorlardan bilim ola boshladim.

Ularning saboqlari, yangi ko'nikmalar orqali xatolarimni to'g'rilab, biznesimni qaytib kelyapman. Korxonada, asosan, tabiiy toza tog' mahsulotlari, bolalikni yodga soladigan, qaddron ta'mga ega yeguliklar zamonaviy usulda qadoqlanib, xaridorlarga yetkaziladi. Patir, qatlama, do'ita yog' singari mahsulotlar ham anchayin xaridorgir. Ular yurtimizdagi savdo do'konlari, mahalliy bozorlardan tashqari qo'shni davlatlarga eksport qilinadi. Korxonada 10 dan ziyod kishi ish bilan ta'minlangan. Tadbirkor o'z hududidagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlayotgani, ular uzoq yurtlarga borib emas, balki oila bag'rida,

ham shu korxonada ishlash, mehmonlarga xizmat ko'rsatib kelyapti. O'g'il-qizlarning har biri turli yo'nalishda o'z yo'lidan ketgan bo'lishiga qaramay, oilaviy tadbirkorlik ularning asosiy faoliyati. Korxonada mavsum paytida 15 tagacha qo'shimcha ishchi o'rni ham yaratiladi.



o'zimizda ishlash, daromad topayotganidan quvonib gapirdi. Qishlog'ida tadbirkorlikka qiziquvchi xotin-qizlar ko'pligini alohida ta'kidladi.

Qamara o'z mahsulotlarini ko'proq xorij davlatlariga eksport qilish harakatida. Bu boradagi imtiyozlarni doim kuzatib, xorijliklarning talablarini o'rganib boradi. Yaqinda tog' mevalari va rezavorlardan murabbo tayyorlashni yo'lga qo'ydi. Muni u onasidan o'rgangan. BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan o'tkazilgan tanlovda Qamaraning ushbu loyihasi "Eng yaxshi biznes g'oya" sifatida tan olinib, 100 million so'mlik qadoqlash apparatlarini yutib oldi. Bir yil oldin pulsiz boshlagan biznesi hozirda fabrika darajasiga yetib keldi.

Oilaviy qiziqishni katta yo'nalishga aylantirib, xorijga mazali va shifobaxsh murabbo eksport qilish harakatida. Endi murabbo uy sharoitida emas, balki katta korxonada zamonaviy uskunalar yordamida tayyorlanib, qadoqlanadi. Boshida yiliga 100 tonna mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Ishlab chiqarish jarayonida rezavor va mevalarning 100 foiz tabiiy bo'lishiga e'tibor qaratiladi, — deydi Qamara Jaylobova. — Ular tog'li hududlarda dehqonlar tomonidan yetishtiriladi. Hatto kamyob, shifobaxsh mevalardan ham jem, mevali pyure, jele tayyorlanadi. Meva hamda rezavorlar o'z suvi va shirasini saqlagan holda qaynatiladi, hech qanday kimyoviy qo'shimchalarisiz quyulashtrilib, rang beruvchi vositalarisiz tayyorlanadi. Umuman, murabbo tayyorlashda qadim zamonlardan buyon qo'llaniladigan usullardan foydalanamiz. Mahsulotlarga shakar qo'shimlasligi bois, qandli diabet, allergiya va turli kasalliklardan aziyat chekadigan insonlar ham iste'mol qilsa bo'ladi. Bu mahsulotlar me'yorida iste'mol qilinsa, organizmni vitamin va mineral bilan boyitadi.

Tadbirkorning asosiy maqsadi mahsulotlarni dunyo bozoriga olib chiqish. Buning uchun xalqaro sifat sertifikatini olish lozim. Bu borada davlatimiz tomonidan beriladigan imtiyozlardan foydalanmoqchi. Ya'ni mahsulotlarga xalqaro sifat sertifikatini olish uchun subsidiyalalar berilishi, juda qimmat bo'lgan bu xarajatlarning bir qismini davlat qoplab berishini bilib quvonadi. Bunga javoban, ishlab chiqarish va eksportni keng yo'lga qo'yib, 100 dan ortiq qishloq aholisini ish bilan ta'minlashni maqsad qilgan.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

DASTURLAR YIRIK KOMPANIYALARGA YO'L OCHMOQDA



Abdulla MAG'RUPOV, texnika fanlari nomzodi, dotsent

I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali asosiy vazifalaridan biri respublikamizda yoqilg'i-energetika sanoati uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim standartlarini xalqaro talablarga javob beradigan ko'rsatkichlarga olib chiqishdan iborat. OTM neft va gaz sohasi bo'yicha barcha darajadagi mutaxassislar, jumladan, amaliyot uchun zarur bo'lgan ilmiy va pedagogik kadrlarni yetishtirishni ko'zda tutadi. Bitiruvchilar neft va gaz tarmog'ida faoliyat yuritayotgan korxonada va tashkilotlarda kamida uch yil sinov shartlarini muvaffaqiyatli o'tab, kelgusida to'laonli mehnat faoliyatiga kirishadi.

Bitiruvchilarimiz bugun mamlakatimizdagi nomdor neft va gaz kompaniyalarida mehnat qilayotir. Filial respublika va xorijdagi yetakchi korxonada va tashkilotlarga, talabchan ish beruvchilarga hamda yuqori texnologik tadqiqot markazlariga zamonaviy mehnat bozoriga mos keladigan mutaxassislar avlodini shakllantirib boradi. 2023-yil yakuniga ko'ra, 227 bitiruvchidan 182 nafari neft va gaz sanoati korxonalarida va xalqaro operatorlar bo'limlariga ishga qabul qilingan. 14 nafari magistratura yo'nalishi bo'yicha o'qishni davom ettirdi, 31 bitiruvchi esa xususiy biznes boshladi. Ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan amaliyot dasturi esa filial va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi strategik hamkorlik ularga asqatmoqda.

Oliy ta'lim muassasasi zamonaviy, o'quv jarayoni va mehnat faoliyati yuritish uchun qulay, ta'lim ikki tilda olib boriladigan, yuqori malakali professor-o'qituvchilar va mutaxassislardan iborat bo'lgan, davr talablariga javob beradigan, ta'lim-tarbiya jarayonini innovation-raqamli modul platformasi asosida tashkil etayotgan universitetlardan biridir. Strategik maqsad "ta'lim — fan — ishlab chiqarish" tamoyili asosida yetakchi oliy o'quv yurti maqomi va salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Bugun mazkur oliy ta'lim muassasasi mamlakat neft va gaz sanoati barqaror rivojlanishi uchun zamonaviy kadrlar tayyorlaydigan ko'p maqsadli klasterga aylangan. Shu bilan birga, bu yerda

mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega, intellektual salohiyatini el-yurt manfaati yo'lida safarbar etishga qodir, erkin va barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan ma'naviy-axloqiy muhit yaratilgan.

Talabalar xalqaro ochiq internet olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rnlarni egallab kelmoqda. Birgina 2022/2023-o'quv yilida xalqaro olimpiadalarda talabalar 50 dan ortiq medalga sazovor bo'ldi, 250 dan ortiq ilmiy maqola mualliflari, 25 ta nomdor stipendiya sohiblariga aylandi.

Yuqori texnologik ishlab chiqarish uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida dual ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, u orqali ta'lim va ishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi integratsiya jarayonini ta'minlash dolzarb masalalardan biri. Dual ta'lim zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Shu bois, 2021-yildan boshlab filialda o'quv jarayoniga kiritilgan dual ta'lim tizimi samara berib kelmoqda. Turli yo'nalish va soha vakillarini tashkil etuvchi 3-4-bosqich talabalari ishlab chiqarish mutaxassislari rahbarligida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llamoqda. Ular mamlakatimiz neft va gaz sanoatining yetakchi korxonalarida kasb-hunar sirlarini o'rganib, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lmoqda.

Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida filial huzurida hududiy tayyorlov kurslari tashkil



etilgan. Har yili hududlar ehtiyojidan kelib chiqib, tayyorlov kurslarida abituriyentlarga rus tili, matematika va fizika fanlarini chuqur o'rganishi uchun kerakli sharoit yaratiladi. 2017-2023-yillarda 2700 dan ortiq yigit-qiz ushbu kurslarda o'qish istagini bildirdi.

Ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik doirasida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy korxonasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, "Lukoil Uzbekistan Operating Company" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Eriell", "Enter Engineering", "Uzbekistan GTL" va boshqa ko'plab kompaniyalar bilan integrativ aloqalar yo'lga qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim va ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, professor-o'qituvchilarni qo'shma innovatsion loyihalarga jalb etish, korxonalarida amaliyot talabiga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda mavjud eksperimental resurs bazasidan samarali foydalanishdir.

Bundan tashqari, O'zbekistonda yoqilg'i energetikani rivojlantirish bo'yicha fundamental tadqiqotlar qilish, jumladan, o'quv laboratoriyalari faoliyatini jahon andozalarida yo'lga qo'yish, talaba yoshlar va ishlab chiqarish korxonalarini hamkorligida neft va gazni qazib olish, qayta ishlash usullarini tashkil etishga qaratilgan moddiy resurslar zaxirasidan

samarali foydalanishni nazarda tutadi. Amaliyot dasturlari orqali professor-o'qituvchilar tomonidan qator uchrashuvlar, o'quv seminarlari o'tkaziladi. Bunda ishtirokchilarga filial hayoti va faoliyatiga oid videomateriallar namoyish etiladi, talaba yoshlarning yoqilg'i-energetikaga bag'ishlangan innovatsion loyihalari va startaplari keng tarq'ib qilinadi.

Ijtimoiy sohadagi samarali ishlar ham diqqatga sazovor. Talaba yoshlar o'zining o'quv, ilm-fan, sport sohalarida, ijodiy va ijtimoiy hayotida erishilgan yutuqlari orqali yildan yilga nufuzi ortib borayotgan "Yil talabasi" respublika ko'rik-tanlovida faol ishtirok etib kelyapti. 2023/2024-o'quv yilida mazkur tanloving yakuni bosqichida ishtirokchilar "Eng faol bilimdon", "Eng faol targ'ibochi", "Eng faol ixtirochi", "Eng faol ijodkor" kabi nominatsiyalar bo'yicha faxrli o'rnlarga munosib ko'rildi.

Sog'lom, bilimli va madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda qudratli kuchdir. Yoshlarga oid davlat siyosati, avvalo, har bir davlatning kuchli ijtimoiy siyosati bo'lib, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Bu sohadagi izchil islohotlar davr talabi bo'lib, doimo takomillashib boradi va uzluksiz jarayon sifatida umrboqiy davom etadi.

Mulohaza

FIRIBGARLARNING YANGI USULI

Uch kunda "prava" tayyorlab beruvchilarga nega ishonmaymiz?

Bugun texnika olami shu darajada rivojlanib ketdiki, yuqoridan chiqmay turib ham yetkazib berish xizmatidan foydalana olasiz. Biror narsa xarid qilishni istasangiz, oy o'rtasida bo'ladigan yoyma bozorni kutib o'tirmangiz. Shartta gadjetingizni olib, onlayn do'konlardan o'zingiz xohlagan narsani ko'rib, sotib olishingiz mumkin. Bordi-yu ishingiz ko'payib tushlik qilishga vaqtiniz bo'lmasa, taomlarni ham joyingizda turib buyurtma qila olasiz. Hatto biror binoni ijaraga olmay, ko'chaga chiqmay, uyda o'tirib biznes qilish, daromad topish mumkin.

Biroq guruh kurmaksiz bo'lmaganidek, texnika inqilobi hayotimizga bir qator muammolarni ham olib kirishga ulgurdi, buni kunda-kunora ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan xabarlar, yaqinlarimiz hayotida kuzataymiz. Bularning ichida eng katta muammo — onlayn firibgarlar tuzog'i. Odamlar ovoragarchiliklardan qochib, ishini oson bitirishga urinishi oqibatida firibgarlar o'ljasiga aylanib qolmoqda.

Keyingi yillarda haydovchilik guvohnomasini olish bo'yicha bir qancha o'zgarishlar qilindi. Sohadagi kamchiliklar tuzatildi. Yashirincha ish qilayotganlarga choralar ko'rib, haydovchilik guvohnomasini olish birmuncha takomillashirildi. Soha butkul yangilanib, elektron shaklga o'tkazildi. Biroq... Ijtimoiy tarmoqlarda haydovchilik guvohnomasini hech qanday qiyinchiliklarsiz va ortiqcha xat-hujjatlarsiz osongina olib berishni va da qilayotgan firibgarlar tez-tez uchrarmoqda. Bunday xabarlar esa osongina ishini bitirmoqchi bo'lib yurganlarga moydek yoqib tushyapti. "Ular qanday qilib tez fursatda ishimni hal qilib beradi? Bu ish shunchalik osonmi?" deya o'ylab ham o'tirmay, ularning qarmog'iga ilinadi-qo'yadi. Firibgarlar haydovchilik guvohnomasini 3-5 kun ichida tayyor bo'lishi va hamma ishlar xamirdan qil sug'urganday oson bitirishga odamlarni ishonitiraypti ham. Soddagina xalqimiz ularning firibgarligiga chav tushib, aldandib qolmoqda.

3-5 kunda "prava"ni bo'ling!

Odamlarning shu darajada ishonchiga kirib alday ketayotganlar aslida kim? Qanday yo'llar bilan o'ziga og'dirib olaypti? Bu kabi savollarni o'zingiz takror-takror berib, ijtimoiy tarmoqlardan firibgarlarni qidirib boshladim. "HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI" nomli yoqit telegram kanalini topdim va obuna bo'lib, faoliyatini kuzata boshladim. Kanalga kirishim bilan "5 kunda ortiqcha ovoragarchiliklarsiz

haydovchilik guvohnomasiga ega bo'ldim", "Boshida ishonmagandim, rost ekan", "O'zingizga qo'shib ayolimga ham guvohnoma oldim", "Mashennik"lar ko'payib ketdi. Ularga ishonmang. Mana, yana bir mijozim aldandib, bizga murojaat qildi", deya qo'lga haydovchilik guvohnomasini tutib, guvohnoma olganlarning videoxabarlariga duch keldim. Bir dam men ham ularning xabarlariga ishonmangdek bo'ldim. Lekin maqsadim yo'lida ayrim yo'l onlarni qidirishga tushdim. Kanal ochilgandan buyon joylangan xabarlarini o'rganishga kirishdim.

Kanal 2022-yil dekabr oyida ochilib, joriy yil 4-martdan faoliyatini boshlagan va ayni paytda 5 mingdan ortiq obunachiga ega. Firibgarlar joylagan e'lonlarda guvohnoma 3-5 kun ichida tayyor bo'lishi aytiladi. Bunga ular YHXBBdagi tanishlari orqali erishish mumkinligini iddao qilgan. Yangi haydovchilik guvohnomasining narxi 4 million so'mdan boshlanadi. Qo'shimcha toifa olish bahosi esa 3,5 million so'mdan.

Ular potensial "o'lja"laridan quyidagi hujjatlar kerak bo'lishi haqida e'lon joylashtirgan: kerakli toifa, pasport yoki ID kartaning old va orqa tomonlari fotosurati, oq fondagi rasm va imzo, doimiy yashash joyi haqida ma'lumot, yetkazib berish tafsilotlari (telefon raqami, shahar, uy manzili).

Shu o'rinda savol tug'iladi: haydovchilik guvohnomasini olish uchun shaxsning barmoq izi kerak bo'ladi. Uni qayerdan oladi? Firibgarlar savolga o'rin qoldirmagan. Ular guvohnoma haqiqiy ekanini va bazaga kiritilganida, pasport uchun topshirilgan barmoq izidan nusxa olinib, unga qo'shilishiga alohida urg'u bergan. Shu tariqa "o'lja"larini osongina qarmoqqa tushirishga odatlangan. Firibgarlarning haydovchilik guvohnomasini 3-5 kun ichida "hal" qilib berishi qanchalik haqiqat ekaniga oydinlik kiritish maqsadida ana shunday kanallari orqali ishini bitirmoqchi bo'lganlarni surishtirdim.



Ular potensial "o'lja"laridan quyidagi hujjatlar kerak bo'lishi haqida e'lon joylashtirgan: kerakli toifa, pasport yoki ID kartaning old va orqa tomonlari fotosurati, oq fondagi rasm va imzo, doimiy yashash joyi haqida ma'lumot, yetkazib berish tafsilotlari (telefon raqami, shahar, uy manzili).

Firibgarlik qurbonlari

— Yanvar oyining oxirida Facebookda tezlashtirilgan tarzda "prava" olib berishni va da qilgan reklama e'lonini ko'rib, ularning maxsus kanaliga qo'shildim. Boshida o'zim ham shubhalandim. Ammo kanalga joylashtirilgan videolarni ko'rib, haqiqatan 3 kun ichida guvohnoma olish mumkinligiga ishondim. Mendan rasm, pasport ma'lumotlari va oq qog'ozga qo'yilgan imzoini so'rashdi. Ular guvohnoma chiqqanidan keyin to'lov

qilishimni aytdi. Bir necha kundan keyin men bilan bog'lanib, "prava" tayyor bo'lganini, yo'l harakati xavfsizligi xodimlarining planshetida ma'lumotlarim aks etgan guvohnomaning videosini yubordi. Agar 2-3 soat ichida to'lov qilmasam, guvohnoma bazadan o'chib ketishi va qayta o'lmoqchi bo'lsam, muammolarga duch kelishim mumkinligini aytib, qo'rqiddim. Nima qilishni bilmay, ular so'ragan 4 million so'mni yuborilgan plastik kartaga o'tkazdim. Shundan so'ng uy manzilimni so'radi. Yubordim. Ammo keyin men bilan qayta bog'lanishimda va savollarga javob berishimda, — deydi Mirzohid ismli yigit.

Yana bir qurbon — Sardor Ochilov. U ham aynan mana shu kanal egalari tuzog'iga tushgan.

— Tanishimning taklifi bilan kanalga qo'shildim, — deydi Sardor. — Avval yaxshilab kanalni kuzatib chiqdim. Haydovchilik guvohnomasini olganlarning kanalga yuborgan videoxabarlarini ko'rib, kanal admini bilan bog'landim. U aytgan hujjatlarni to'plab, elektron shaklda telegramga yubordim. 5 kun ichida "pravam" tayyor bo'lishini aytdi. Orada kanalga kelgan xabarlar bilan tanishib, kanal adminiga bo'lgan ishonchim yanada ortdi. Aytilgan vaqtda menga qayta bog'lanishib, haydovchilik guvohnomam tayyor bo'lganini va 2-3 soatda to'lov qilmasam "pravam"

kuyib ketishini aytdi. Karta raqamini jo'natgach, shuncha harakat yo'qqa chiqmasin, deya darrov kelishilgan mablag'ni o'tkazib yubordim. Shundan so'ng ular uy manzilimni olib, haydovchilik guvohnomamni pochta qilib yuborishini, bir necha soatlarda qo'lmda bo'lishini aytdi. Ammo oradan bir necha kun o'tsa-da, ular darak bo'lmadi. Kanal adminiga qayta bog'landim. Lekin savollaringiz javob o'lmadim. Ko'p yozaverganimdan bloklab bo'ldi. Essiz, shunchalik ham laqma bo'lmamanmi? Farzandimning o'qishi uchun olib qo'ygan pulimni firibgarlarga aldandib, suvga oqizdim. Tanishim ham chav tushib, menga ham tavsiya qilganidan afsuslanib o'tiribdi ekan. Undan ko'ra, o'qib, imtihonlarni topshirib, halol yo'l bilan olsak ham bo'lardi-ku...

Unaqasi faqat tushda bo'ladi

Yana bir necha yurtdoshimiz bilan bog'landik. Ular ham yuqoridagi kabi javoblarni aytdi. Tez fursatda haydovchilik guvohnomasini qo'lga kiritaman, deb ko'pchilik chav tushib qolgan. Kimdir farzandining o'qishi uchun yig'ib qo'ygan pullaridan, yana kimdir uy yoki mashina uchun yig'ayotgan pulning bir qismini shu tariqa ajrab qolgan. Kimdir qarzhavola qilgan... Xo'sh, o'zi 3 yoki 5 kunda haydovchilik guvohnomasini olsa bo'ladi?

— Ashlida, milliy haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lish ayrim fuqarolar o'y-layotganidek oson emas. Buning uchun, qonunchilikka asosan, bir qator sinovlardan bosqichma-bosqich o'tish kerak bo'ladi, — deydi O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi matbuot kotibi Laziz Bo'ronov. — Keling, yaxshisi, bu jarayonni "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarini faoliyati misolida tushuntirib bersak. Masalan, "B" toifa bo'yicha haydovchilik kasbini egallamoqchi bo'lgan fuqaro belgilangan miqdordagi to'lovni to'lashi, 216 soatdan iborat nazariy mashg'ulotlarni va 69 soatdan iborat amaliy mashg'ulotlarni o'tlashtirishi, o'qish yakunida bilim va ko'nikmalarini tekshirishga qaratilgan ichki imtihonlarni topshirishi talab etiladi. Yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan fuqaroga tegishli guvohnoma topshiriladi. Mazkur hujjat avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini bermaydi. U faqatgina fuqaro milliy guvohnoma olishi uchun vakolatli idoralarga imtihon topshirish

huquqini beradi. Ushbu o'qish jarayonlari 4 oy 10 kun davom etadi. Anglaganingizdek, milliy guvohnomaga ega bo'lish ayrim firibgarlar tasvirlaganidek oson emas.

Oson ishning oqibatini o'ylash kerak

Darhaqiqat, bugun ijtimoiy tarmoqlarda shunga o'xshash kanallar ancha ko'payib qolgan. Ular firibgarlik yo'li bilan odamlarning ishonchiga kirib olib, so'ng chav tushirib ketgan. Qizig'i, odamlarning o'ziga ham qiyinchiliklarsiz ish bitirish ma'qul kelmoqda. Osongina bitadigan ishning oqibatini o'ylab ham ko'rilmaydi. Xo'sh, aholing firibgarlar tuzog'iga tushib qolmasligi uchun qanday ishlar qilinmoqda? Ana shunday ishlar bilan shug'ullanayotgan firibgarlar aniqlanib, javobgarlikka tortilyaptimi? Shu kabi savollar bilan Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimi Lochinbek ATOYEV bilan bog'landik:

— Bir yil davomida kiberjinoyatlar soni avvalgiga qaraganda 20-30 foiz ko'paygan. Firibgarlar odatda odamlarning bank kartasidagi mablag'ni o'zlashtiradi. Lekin bugun ular ham yangi usullarda ishlayapti. Jumladan, haydovchilik guvohnomasini tez fursatda olib berishni va da qilish orqali pul undirish holatlari tez-tez uchrarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi shu kabi firibgarlarni aniqlash uchun tekzor guruhlari tashkil etilgan bo'lib, firibgarlar javobgarlikka tortilmoqda. Ammo ijtimoiy tarmoqlarni to'liq nazorat qilish imkonini kamligi bois, bunday firibgarliklarni joyida bartaraf etish imkonini bir oz pastroq. Shu o'rinda aholidan ijtimoiy tarmoqlardan hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan foydalanishni, firibgarlar tuzog'iga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishni so'rayman.

Hushyor bo'ling

Ko'rib turganingizdek, bularning bari firibgarlar nayrangidan boshqa narsa emas. Qonuniy tarzda rasmiylashtiriladigan haydovchilik guvohnomasini belgilangan amaliy mashg'ulotlarni topshirib, darslarni o'zlashtirmay, test sinovlaridan o'tmay turib qo'lga kiritib bo'lmaydi. Belgilangan barcha sinovlardan o'tgachgina guvohnomaga ega chiqish mumkin.

O'ylab ko'ring, ularning ishi qonuniy bo'lsa, talabgorlarni nega o'qitib, belgilangan talablarni bajaritmayapti? Nega ular ishingizni tez bitirib bergani uchun xizmatlar evaziga kam pul talab qilyapti? Ularning ishi iqtisodiy qonun-qoidalariga to'g'ri kelmasligini ham o'ylang. Har bir kishiga aql-idrok bilan o'yalash xislati berilgan. Shunday ekan, puxta mulohaza bilangina qaror qabul qilish dardkor. Yuqoridagi yurtdoshlarimiz kabi firibgarlar tuzog'iga tushib qolmaylik. Axir ota-bobalarimiz "yetti o'lchab bir kes", deb bekor aytmagan.

Mansurbek JABBOROV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

San'at

Elmurod HAQNAZAROV:

BUGUN HAMJIHAT BO'LGAN, BIRLASHGAN XALQGINA YUTADI

Dunyoda shunday kasb borki, uni o'qituvchilar o'rgatolmaydi. O'rgatadigan qo'llanma-yu o'quv binolari ham yo'q. Ularni xalq tarbiyalaydi, xalq shakllantiradi. Bu kasb egalari so'z san'ati ustalari — qiziqchilardir. Ular azaldan jamiyatda uchraydigan turli kamchiligi muammolarni ommaga yuzlashtirgan.

O'zbek qiziqchilik san'ati deganda Yusufjon qiziq Shakarjonovdan Avaz Oxungacha bo'lgan so'z ustalari ko'z o'ngimizda jonlanadi.

Bugungi subhbatdoshimiz o'zining komik rollari bilan xalq qalbiga kirib borayotgan so'z ustasi Elmurod HAQNAZAROV. Muloqotimiz davomida qiziqchilik san'ati, kino hamda jamiyatimizda uchrayotgan muammolar, dolzarb mavzular haqida to'xtalishga harakat qilдик.

Sizdan qo'shiqchi emas, qiziqchi chiqadi

Inson bir talay orzular bilan ulg'ayadi. Kimdir sportchi, kimdir harbiy yoki shifokor bo'lishni orzu qiladi. Eng muhim qaror esa vaziyat taqozosi bilan qabul qilinadi. Bolaligimda futbolchi bo'lish orzum edi. Ammo jarohatlar tufayli sport bilan xayrlashdim. Bugungi kungacha turli sohalarda o'zinni sinab ko'rdim: o'qituvchilik, operatorki, to'ylarda boshlovchilik qilganim, zavodda ham ishlaganim... Bilasizmi, nima ish qilishimgizdan qat'i nazar, topayotgan daromadimizda baraka bo'lmasa, qiyin ekan. Avvaliga menda ham topganim barakasiz bo'laverdi. Bu orada Farg'ona politexnika institutiga hujjat topshirib, talaba bo'ldim. O'sha vaqlarda oilaviy ahvolumiz u qadar yaxshi emasdi, o'qishga piyoda qatnaganim.

Qiziqchilikka kirib kelishimning o'zi qiziq bo'lgan. Bir kuni dadam uyda rahmatli Hojiboy Tojiboyevning konsertini ko'rib o'tirgandi. Ustoz bir payt "Hozir ishi yurishmaganning hammasi qo'shiq aytayapti", dedi. Dadam kulib yubordi. Bu holat menga alam qilgan. Sababi, o'sha vaqlarda qay bir sohaga bosh qo'shimay, ishim yurishavermasdi. Oilamga shunday jihatdan qarasha olmasdim. Keyin xonanda Otabek Muhammadzohidning uyiga borib, sizga shogirdlikka tushaman, deganman. Aka meni eshitib ko'rib, sizdan qo'shiqchi chiqmas ekan degan. Oradan vaqt o'tib, qayta tayyorlanib, uchinchi marta bordim. Do'stlari bilan davra qurib o'tirgan ekan. Yana o'sha gap.

Shunda "Ustoz, to'g'risini aytсан, institutga

kontrakt asosida kirganman. Mayli, ashula aytmasam ham, yoningizda yursam bo'ldi. Keyinchalik "E, bu Otabekning shogirdi Elmurod Haqnezarov-ku", deyishadi. So'ng to'ylarga chaqirishadi, pul ishlab kontraktimni to'layman", deganimda kulib yuborishgan. Otabek aka o'shanda "sizdan qo'shiqchi emas, qiziqchi chiqadi", degan edi. Bora-bora QVZga qo'shilib, turli tanlovlarda qatnashganman. "Avvaling xor bo'lsa bo'lsin, oxiring xor bo'lmasin", deyiladi-ku bir qo'shiqda. Hech qachon qiziqchilik sohasidan pul topish imkonligi haqida o'ylamaganman. Nasiba ekan, mana bugun shu sohaning noini yeb, ro'zg'or tebratib yuribman.

Qiziqchilik — eng qiyin kasb

Bu kasbda birinchi ustozim — xalq. Hayotda hamma narsani, yutuqlarni ham, kamchiliklarni ham shu xalq ichidan topdim. Sohaga qiziqishga sababchi bo'lgan ustozlarim — Hojiboy Tojiboyev, Muhammadsiddiq Shirayev. Ularning ijodini kuzatib sohaga qiziqishim yanada ortgan. Qiziqchilik dunyodagi eng qiyin kasb. Misol uchun, o'qituvchilikni ham, jarohlig-u hunarmandlikni ham o'rganish mumkin. Ammo qiziqchilikni hech qayerda o'rganib bo'lmaydi. Bu kasbni egallayotgan insonlarga chin iste'dod, iqtidor berilgan bo'lishi kerak.

Ayrim "kinochi"lar unutilib qo'rgan muhim narsa...

Bugungacha bir necha marta konsert berdim. Bir necha yil ilgari kinoda rol ijro etishni taklif qilishdi. Qishloq hayoti mavzusida olinishi kerak ekan. Rejissyor do'ppini ko'rsatib, "buning nomi nima edi?" deyapti. Men u roldan voz kechdim. Qanday qilib o'zi olayotgan kinoning muhitini, mazmunini bilmaslik mumkin?

Masalning boshqa bir tomoni odamni o'ylantiradi. Bolaligimdan ko'rib o'sgan "Shum bola", "Dev bilan pakana", "Shaytanat" kabi kinolar nafaqat o'z davrida, balki bugungacha ham sevib ko'riledi. Yoki yaqinda olingan "Tengiz", "Ilhaq" kabi filmlar o'zbek kino olamiga yangicha ruh olib kirdi. Demak, kino sohasiga umumiy hukmni o'qish qiyin masala. Ammo g'alvirmni suvdan ko'tarsak, bu kabi kinolar bugun anqoning

urug'idek gap. San'at juda murakkab soha. Eng yaxshi aktyor, eng yaxshi rejissyor, katta mablag' bo'lgani bilan yaxshi ssenariy bo'lmasa, bari bafoyda. Yaxshi kino olish uchun yaxshi ssenariy bo'lishi kerak. Kino bir necha kishining qarashlari bilan cheklanib, hayotdan uzilib qolmasligi shart.

Ba'zi kinochilar muhim narsani unutilib qo'rgan: bizda shakllangan qadriyatlarimiz asosiy belgilari mehr-oqibat, kattaga hurmat — kichikka izzat, vatanparvarlik, eng muhimi, milliylik ufurib turishi lozim. Chunki bular muqaddas tushunchalar. Bizda og'a-ini bir

asoslangan kinolarini tomosha qilishimiz kerak? Televizor bu — ko'zgu. Xohlaysizmi-yo'qmi, unda namoyish etilayotgan kinolar-u ko'rsatuvlar yosh-u kattaga birday ta'sir qiladi.

Ronalduning tug'ilgan yilini biladiganlar...

O'tgan yilgi konsertimda matematika va geometriya o'qituvchisi rolda dars berishim kerak bo'lgan bir epizod bor edi. Sahnada Ronalduning rasmini ko'rsatib, "bu kim" desam, ishonasizmi, tomoshabinlar uning ismi, vatani u yozda tursin, tug'ilgan yili-yu nechta bolasi borligigacha sharillatib aytib beryapti! Messini ham xuddi shunday ta'riflashdi. Keyin Muhammad al-Xorazmiyning suratini ko'rsatdim. Zal jim-jit... Tasavvur qilyapsiz-a? Biz zamonaviy taraqqiyotga asos solgan, dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan o'z bobolarimizni tanimaymiz.

Yana bir achinarli holat. Bizda ichki bo'linishlar — qishloq, shaharlik, boy yoki kambag'al, degan tushunchalar shakllanib qolgan. Tasavvur qiling, Vashington shahri aholisida "sen Las-Vegasdan kelgansan", degan tushuncha yo'q. Ular biz barchamiz amerikaliklarmiz, deyishadi va bundan g'ururlanishadi.

Londonlik kishi ham boshqasiga "u liverpullik" yoki "Manchesterdan kelgan", deb barmoq niqtamaydi. To'g'ri, bir zamonlar qora tanli, oq tanli, degan qarashlar bo'lgan. Lekin bugun u Afrikadan kelganmi yoki Osiyodan, "Biz amerikalikmiz" deydi. Keyingilari esa, "britaniyalik" ekanidan faxrlanadi. Ya'ni shu davlat manfaati uchun birgalikda harakat qiladi. Butun qoniga singib ketgan shu tushuncha.

Bizda nega bunday salbiy qarash shakllangan odamni jiddiy o'ylantiradi. Dunyoga bir qarang. Bugun zamon shiddatli, o'zgaruvchan. Hamjihat bo'lgan, birlashgan xalqgina yutadi. Taraqqiyotga erishadi. Shunday ekan, biz ham "Men o'zbekman!", "Biz o'zbekmiz, o'zbekistonlikmiz!" deb baralla aytishni o'rganishimiz kerak. Shu g'oya atrofida, bir bayroq ostida birlashib, harakat qilishimiz zarur. Mana shunda bizga nisbatan boshqalarning qarashini o'zgartira olamiz. Misol uchun, deylik ayrim davlatlarda o'zbek desa, boshqacharoq qarashadi. Nima uchun, bilasizmi? Sababi, biz o'z yurtimizni



qo'ya turaylik, uzoq xorijda yurganimizda ham bir-birimizning kovushimizga suv quyamiz. Yana bir masala. Poytaxt ko'chalarida yurib, o'zga yurgta tushib qolganek his qilaman o'zinni. Reklama-yu peshlavhalardagi e'lonlarni ko'rib, odamning ichi muzlab ketadi. Ba'zan o'zaro muomala-muloqotda ham zarurat bo'lsa-bo'lmasa, o'rishchayu inglizcha aralashtrib gapirayotganlar kammi? Keyingi paytlar turkcha-yu arabchani aralashtrish ham "ur" bo'lyapti. Holbuki, bizning chiroyli, go'zal ifoda usullariga boy tilimiz bor.

San'atkorning eng katta yutug'i

Xohlaysizmi-yo'qmi, odam e'tibor kutadi, o'zgarar e'tirof etishini istaydi. Bir gal konsertdan so'ng nafaqat yurtdoshlarimiz, balki ko'shni Qozog'iston, Tojikiston, Rossiyadan ham murojaatlar bo'ldi. Hatto qamoqxonadan qo'ng'iroq qilishdi. "Birinchi ko'rganimizda kuldik, keyingisida yag'ladik, uchinchisida tushunib yetdik", deyishdi. Shunday e'tiroflardan keyin ko'ngil ko'tariladi-da.

San'atkorning yutug'i — manzil tanlamaydi. Ko'tarayotgan muammolari chegara bilmaydi. Uning eng katta g'alabasi ham shu, aslida.

Mas'uliyat har bir insondan meros qolishi kerak

Har kim millatning emas, avvalo, o'zining mas'uliyatini his qilishi kerak. Ya'ni dehqon ham, cho'pon ham, san'atkor ham o'z ishini ustalik bilan bajarishi lozim. Millat deganda umummanfaat yotadi. Umummanfaatning asosi baribir shaxslarga borib taqaladi. Bir shaxs mas'uliyatini umummas'uliyatdan ayro tasavvur

qilmaslik kerak. Bizning vazifamiz odamlardagi ayrim kamchiligi muammolarni kulgi vositasida yana xalqning o'ziga ko'rsatish, ko'zgu tutish. Qiziqchilikning yutug'i ham shunda. Agar ikki soatlik konsertda xalq yerda, san'atkor osmondan yursa, buning foydasi yo'q.

Mas'uliyat har bir insondan meros qolishi kerak. Qish uyusida ko'rganini qiladimi, yo'qmi, buni bilamiz. Ammo inson atrofida ko'rgan ishlarini qilishi tabiiy. Har kim mas'uliyat orqali nafaqat o'ziga, balki jamiyatga ham naf keltira oladi.

Bizdan ustozlar qachon, qanday va nechta kitob o'qiganimizni so'rab turadi. Hozirgacha ham shunday. Kerak bo'lsa, buning ortidan dakki ham eshitgan kunlarimiz bo'lgan. Qiziqchilik sohasida sizdan eng ko'p so'raladigan narsa — so'z. Buning tabiiy yo'sinda ortib borishiga kitob sababchi. Qiziqchi, ayniqsa, so'zni, nima deyotganini his qilishi kerak. Shu o'rinda Erkin Vohidovning bir gapi yodimga keldi: "Odamlarda tafakkur kuchi ortgani sari tasavvur kuchi kamayib bormoqda. Zavq-shavq o'rmini sovuq hisob-kitob egallamoqda. Aql va yurak bahsida hissiyot yengilib, quruq mantiq g'alaba qilmoqda. Bu jamiyat uchun xatarli hol. O'zbek askiyani unutsa, do'stona hazillarni esdan chiqarsa, so'zning latofatini anglamay qolsa, bu falokatdir".

Odamlarga kulgi ulashish katta baxt. Tabiat qo'ynidagi qorlarni quyosh eritadi. Ammo odamning yuziga kulgi yugurtirish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Bitta qiziqchi minglab, millionlab odamlarga kayfiyat ulashadi. Tabiiyki, kayfiyati yuqori insonning ish unumdorligi oshadi, kasal ham bo'lmaydi. Tilagim — hayotda kulib, kuldirib yashaylik. Shunda kunlarimiz baxtiyor o'tadi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Sardon TOLLIBOYEV yozib oldi.

Sayyohlik

TOSH QOTGAN DINOZAVR IZLARI

Tabiat mo'jizalarga boy. Uning sir-sinoatlarini o'z ko'zingiz bilan ko'rib, guvohi bo'lishning zavqi boshqacha. Ayniqsa, tog'-u toshlar kezib, o'simliklar-u hayvonot olami bilan do'stlashib, mehnat qilganga nima yetsin.



Ismoil aka har tong o'ziga belgilangan hududni nazorat qilish uchun ishga kirisharkan, doimiy odati — purviqor tog'larga termilib, ulardan quvvat olgan bo'ladi. Ayni paytda keksa mo'ysafid kabi boshiga oppoq salla o'rab olgan osmono'par cho'qqilar qalin qor bilan qoplangan.

Allaqachon quyoshning zarin nurlari tepaliklarga tushib, ko'zni qamashtiradi. Bu atrofdagi har bir giyohdan tortib, qimirlagan jamiki jonivorlarni-da ko'z qorachig'idek asrash mas'uliyati nazoratchi zimmasida. Ona tabiat bag'rida erkin yurgan hayvonlar ham qo'riqchini yaxshi tanib qolgan. Uning qadam tovushlaridan sezib, bir muddat tosh ortida

ko'rinmay turishadi. Gohida xabarchi qushlar ogohlantirsa-da, ayrim jonivorlar unga o'rganib qolganmi, ko'p ham o'zini chetga olavermaydi. Ammo epchillig-u kuchda bu yaqin atrofda tengsiz hisoblangan qor qoploni juda sezgir. Oslidan odam hidini olib, qoyalarga o'tib ketadi. Faqat uning izlarini ko'rish mumkin.

Ismoil aka hududdagi har bir so'qmoqni, tepalik va pastlikni yaxshi biladi. Ayniqsa, yovvoyi hayvonlarning qaysi daradan yoki soylikdan harakatlanishini puxta o'rgangan. Shu bois, doim o'zi ham hushyorlikni yo'qotmagan holda kuzatuv olib boradi.

Nazoratchi qo'lga durbin olib, sokin tog' bag'rini ko'zdan kechiradi. Huv narida

salobat to'kib turgan cho'qqi Hazrati Sulton deb nomlanadi. Narida esa Xo'jaqirshivor, Xo'japirpirak ota, To'rtqo'ylik, Bibi O'lmas, Nomsiz kabi bir-biridan baland cho'qqilar. Hech bir xavotirli holatga guvoh bo'lmagan qo'riqxonada xodimi yana yo'lida davom etadi.

Ismoil aka kuzatuvlari davomida tog' bag'rida xotirjamlik hukm surayotganiga ishonch hosil qilib, bir chetdagi tekis toshga o'tirganicha yondafatiriga nimalarnidir qayd qilishga kirishadi.

Asosiy ishimiz hududdagi o'simlik va hayvonot dunyosini qo'riqlashdan iborat, — deydi Hisor davlat qo'riqxonasi Shahrisabz tumani G'ilon bo'lmi nazoratchi xodimi Ismoil Niyozov. — Bu ish men uchun juda qiziqarli. Tabiat qo'ynida turli mo'jizalarga duch kelamiz. Ayniqsa, bahor oylarida tog' o'ziga rangga kiradi. Butun ekoolam qayta yosharib, go'zallikka

burkanadi. Bunday paytda tabiat bag'ridagi mavjudotlarda yashashga bo'lgan ishtiyoq yanada kuchayadi. Bir tomonda ayiq, bir tomonda qor qoploni va yana boshqa hayvonlar... Barcha-barchasi go'yoki ahil, bir oila kabi yashaydi. Asosiy, ular uchun xotirjamlik kerak. Qizig'i, hayvonlar suratang tushishni yoqtiradi. Bundan bir oz ilgari ilk bor hududlarga fotoqoplonlar o'rnatiladigan bo'ldi. O'sha vaqtda biz bu uskuna yaqiniga biror yovvoyi hayvon kelishiga, kechasi esa, umuman, oldidan o'tishiga ishonmagandik. Chunki fotoqoplonning tepa qismida mitti chiroq yonib turadi. Bundan yovvoyi jonivorlar hayiqadi, degan fikrda edik. Lekin bu noto'g'ri bo'lib chiqdi. Sababi, keyingi kuzatuvlar natijasida hududdagi yovvoyi jonivorlar aynan fotoqopqon oldiga kelib, termilib turganini yoki qayta-qayta go'yoki suratga tushishga chog'langan kabi o'tishini



ko'rdik. Bular orasida kamdan kam hollarda ko'rinish beradigan qor qoploni ham suratga bir necha bor tushgan. Misol uchun, ilgari qor qoploni faqat yakka holda uchragan bo'lsa, keyingi paytlarda to'dasi bilan fotoqopqonga tushmoqda. Buning natijasida ularni sanoqdan o'tkazish qulay bo'lyapti. Hozir ellikdan ortiq qoplon qayd etildi.

Hisor davlat qo'riqxonasi nafaqat hayvonot va o'simlik olamiga, balki o'ziga xos tarixiy yodgorliklarga ham boy. Jumladan, hududda Amir Temur g'ori bor. Qal'ai Sheron darasi deya nom olgan bu hududga g'orni tomosha qilish uchun xorijdan sayyohlar ko'p keladi. Buyuk sarkarda nomi bilan bog'liq g'or o'lisdan qaraganda anchagina kichik ko'rinadi. Ammo yaqiniga borib, uning qanchalik mahobatli ekanini his qilaisiz.

G'orga kirish yo'lagi ikkita. Biri o'sha damlarda otxona vazifasini o'tagan joyga, yana biri muayyan muddat boshpana bo'lgan xonaga yo'naladi. Kirish qismi oldida tosh bo'laklariidan kattagina supa qilingan. Vaqt ta'sirida bugun supa ko'rinishini yo'qotgan bo'lsa-da, mohirona uslubda bir tekis qilib terilgan toshlarga qarab, ustangiz ishiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q. Shuningdek, baland supa devoridagi toshlarni ushlab turish uchun ustun sifatida archa daraxti yog'ochlari ishlatilgan. Shu sabab bo'lsa kerak, hanuzga qadar uning devorlari saqlanib qolgan.

Kattagina g'or ichiga kirgan kishi tabiat manzaralariga duch keladi. Tobora ichkarilab borar ekansiz, tepadagi toshlar orasidan sizib, pastga tomchilayotgan chakka ovozi sukunatni buzadi. Yanada oldinga yurganingiz sari yo'lak torayib boraveradi. Ichkaridagi ajoyib manzara esa kishini mahliyo qilishi tabiiy. Xullas, ming bor eshitgandan bir bor ko'rgan afzal.

Ho'kizburun hamda Baytal dumi sharsharalari daraga ajib bir go'zal ko'rinish baxsh etib turibdi. Ancha balandlikdan otilib tushayotgan sharsharaning jo'shqin qo'shig'i sayyohlarni maftun etadi.

Bu manzilda ko'pchilikni qiziqtirgan yana bir tabiat yodgorligi borki, unga hayrat ila boqmasdan ilojingiz yo'q, —

deydi qo'riqxonaning ekoturizm bo'yicha mutaxassisi Abdulla Abdusalomov. — G'ordan bir oz yurilgach, shundoqqina katta xarsangda dinozavr izi ko'zga tashlanadi. Yirik hayvon izlarini bu yaqin atrofda yana bir necha joyda uchratish mumkin. Umuman, hududimizda tabiatning o'ziga xos manzaralari juda ko'p. Shu bois, joriy yilda ekoturizmini rivojlantirish maqsadida qator loyihalarni amalga oshirish maqsad qilingan. Jumladan, Hazrati Sulton tog'iga, Suvtushar sharsharasi hamda Amir Temur g'ori va dinozavr izlarini sayyohchilarga chiqib, tomosha qilishi uchun sharoitlar yaratiladi. Buning uchun turli xizmatlar yo'lga qo'yiladi. Maishiy obyektlar barpo etiladi.

O'tgan yili qo'riqxonada ilmiy izlanishlar ham qilindi. Xususan, Fanlar akademiyasi Botanika institutining bir guruhi ilmiy xodimlari hamkorligida qo'riqxonaning Qizilsuv, Tanxozdaryo, Miraki va G'ilon bo'limlari hududining dengiz sathidan 1800-4000 metr balandlikkacha bo'lgan qismida ilmiy izlanishlar samarasida 1300 tur o'simliklardan 12 mingdan ziyod gerbariy tayyorlandi. Buning natijasida Hisor tizmasi va yurimiz florasida yangi bo'lgan 10 ta tur aniqlandi.

Hududdagi o'simlik dunyosini o'rganish asosiy vazifamizga kiradi, — deydi "Hisor davlat qo'riqxonasi" davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi direktori Qahramon Normuhammedov. — 2023-yilgi dala tadqiqotlarida yangi turlarni aniqlashga erishildi. Bu ishlarni joriy yilda yanada kengroq davom ettirish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan.

Bugun yurtimizda Hisor davlat qo'riqxonasi kabi qator qo'riqlanadigan tabiiy hududlar mavjudligi ona zamin musaffoligini asrashga katta hissa qo'shmoqda. Qolaversa, allaqachon yo'qolish xavfi ostidagi hayvonlar ko'payishiga imkon yaratilib, noyob turlari asrab qolinmoqda. Aslida, bu vazifa nafaqat qo'riqxonalar nazoratchilarining, balki barchamizning birdek burchimiz. Shunday emasmiz?!

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1024. 44909 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova Musahhirlar: Malohat Mingboyeva Dizayner: Sherzod Mahmudov

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy